

**ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALR BERUVCHI
DSc.03/29.12.2022.Fil.156.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI

RUSTAMOVA DILRABOXON ABDURAHIMOVNA

**LINGVISTIK ATAMALARNI ENSIKLOPEDIK LUG‘ATLARDA
KODIROVKA QILISH**

10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi

**FILOLOGIYA FANLARI doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Contents of dissertation abstract of the doctor of sciences (DSc)

Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)

Rustamova Dilraboхon Abdurahimovna

Lingvistik atamalarni ensiklopedik lug‘atlarda kodirovka qilish 3

Rustamova Dilrabokhon Abdurahimovna

Coding of linguistic terms in encyclopedic dictionaries 37

Рустамова Дилрабохон Абдурахимовна

Кодирование лингвистических терминов в энциклопедических словарях 73

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

List of published works

Список опубликованных работ 80

**ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALR BERUVCHI
DSc.03/29.12.2022.Fil.156.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI

RUSTAMOVA DILRABOXON ABDURAHIMOVNA

**LINGVISTIK ATAMALARNI ENSIKLOPEDIK LUG‘ATLARDA
KODIROVKA QILISH**

10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi

**FILOLOGIYA FANLARI doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.DSc/Fil671 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Andijon davlat chet tillari institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz va rus (rezume) tillarida) Andijon davlat chet tillari instituti web-sayti (www.adchti.uz) hamda “Ziyonet” axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Shaxabitdinova Shoxidaxon Xoshimovna
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Gulyamova Shaxnoza Kaxramonovna
filologiya fanlari doktori, dotsent

Samandarov Rustam Do‘iyorovich
filologiya fanlari doktori, dotsent

Axmedova Mehrinigor Bahodirovna
filologiya fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Farg‘ona davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Andijon davlat chet tillari instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/29.12.2022.Fil.156.01 raqamli Ilmiy kengashining 2026-yil “___” _____ soat ___dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 170100, Andijon shahri, Bobur shohko‘chasi, 5-uy. Tel: 0(374) 223-42-76; faks: 0(374) 223-42- 76; e-mail: info@asifl.uz).

Dissertatsiya bilan Andijon davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____-raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 170100, Andijon shahri, Bobur shohko‘chasi, 5-uy. Tel:0(374) 223 42 76).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “___” _____ kuni tarqatildi.
(2026-yil “___” _____ da _____ - raqamli reestr bayonnomasi).

M.E.Umarho‘jayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, filologiya.fanlari doktori, professor

A.Dj.Ataboyev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

M.A.Abduvaliyev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (doktorlik (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida milliy tillarning paydo bo'lishi, shakllanishi, rivojlanish bosqichlari turli aspektlarda o'rganilgan. Har qanday fan tadqiqining asosiy vositasi bo'lgan terminlar, ularning lingvistik tabiati, yuzaga kelish manbalari, yasash usullari, terminlarning tuzilishiga ko'ra turlari, ulardagi sinonimlik va dubletlikni bartaraf qilish yo'llari, termin va tushuncha munosabati kabilar ham tilshunoslikdagi asosiy masalalaridan biriga aylangan.

Dunyo tilshunosligida lingvistik terminologiyaning paydo bo'lishi va alohida terminologik qatlam sifatida shakllanishini antropotsentrik planda tadqiq etish, terminlarning lingvistik tushunchani qay darajada ifodalashidan kelib chiqib tartibga solish borasida tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu ma'noda tilshunoslikning rivoji bilan yangi terminlarining paydo bo'lishi, terminlardagi sinonimiya, polisemiya va variantlilikning yuzaga kelish sabablarini aniqlash, o'zlashma terminlarning milliy terminologik tizimga ta'sirini ochib berish, murakkab tarkibli terminlarning hosil bo'lishi yuzasidan aniq xulosalarga kelish tilshunoslikning muhim vazifalaridandir.

O'zbekistonning mustaqil milliy taraqqiyotga erishishi jamiyat hayotining barcha sohalariga, xususan, milliy-madaniy qadriyatlarning tiklanishiga o'z ijobiy ta'sirini ko'rsatdi. O'zbek tili leksikasining boyishi va rivojlanishi ham istiqlol yaratgan imkoniyatlar bilan bog'liq bo'ldi. Shuning barobarida o'zbek tilshunosligida ham tilimizning turkona tabiatini aniqlashga yo'naltirilgan qator tadqiqotlar bajarildi. O'zbek tilshunoslari terminologiyani tartibga solish, o'zbek tilidagi turli soha terminlarini izohlash, o'zbekcha termin yasash usullarini ishlab chiqish borasida salmoqli ishlarni amalga oshirdilar. Shu bilan bir qatorda, tilshunoslikning taraqqiy etib borishi bilan uning terminologiyasida ham tadqiq qilinishi zarur bo'lgan muammolar kelib chiqadi. Ana shunday masalalardan biri ensiklopedik lug'atlarda lingvistik terminlarni kodirovka qilish masalasidir. Zero, „..farzandlarimiz tarbiyasi, ma'naviy-ma'rifiy sohadagi ishlarimizni bir zum ham susaytirmasdan, ularni yangi bosqichga ko'tarishimiz zarur“¹. Shu ma'noda o'zbek tilshunoslik terminlarining shakllanishi va taraqqiyotini tadqiq qilish ustivorlik kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4794-son “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlato'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida”gi, 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha “Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi Farmonlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu ilmiy tadqiqotimiz ma'lum darajada xizmat qiladi.

¹ Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қураимиз. – Т.,Ўзбекистон, 2017. – Б. 17.

Dissertatsiyaning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyoti ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqot mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi².

Jahon tilshunosligida terminografiya, terminologiya, leksikografiya va uning xususiy masalalarinio‘rganishga yo‘naltirilgan ilmiy izlanishlar yetakchi ilmiy markazlar va oliy ta‘lim muassasalarda, jumladan, Oxford University (Buyuk Britaniya), Cambridge University (Buyuk Britaniya), Humboldt Universitat (Germaniya), Boston University, University of New York, (AQSH); University of Zurich (Shveysariya), Upsalla universiteti (Shveysiya), Kiofo University (Yaponiya), Istanbul universiteti (Turkiya), Sankt-Peterburg davlat universiteti (Rossiya), Chuvash davlat universiteti (Rossiya Federatsiyasi), Omsk davlat universiteti (Rossiya Federatsiyasi), Tyumen davlat universiteti (Rossiya Federatsiyasi), Baki Dovlat universiteti (Ozarbayjon), Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, Al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti va uning filiallari, Andijon davlat universiteti, Buxoro davlat universiteti, Termiz davlat universiteti (O‘zbekiston)da olib borilmoqda.

Dunyo tilshunosligida terminlarning semantik, leksikografik xususiyatlari, terminologik va ensiklopedik lug‘atlarni ishlab chiqish tamoyillari hamda metodikasi, turli soha terminlarining semantik izohlarini yaratish va lingvistik terminlarning kodirovkasiga oid olib borilgan izlanishlardan quyidagi ilmiy natijalar olingan: chuvash tili lingvistik terminosistemasida milliy va baynalmilal terminlarning o‘rni aniqlangan (Chuvash davlat universiteti, Rossiya Federatsiyasi), filologik va ensiklopedik lug‘atlarda terminlarni izohlash muammolari o‘rganilgan (Sankt-Peterburg davlat universiteti, Rossiya Federatsiyasi), lug‘atlarning semantik tasnifi ishlab chiqilgan (Omsk davlat universiteti, Rossiya Federatsiyasi), ilmiy terminologiyaning ideografik tavsifi tamoyillari ishlab chiqilgan (Tyumen davlat universiteti, Rossiya Federatsiyasi), soha terminologiyasini ishlab chiqish tamoyillari ishlab chiqilgan (Baku davlat universiteti, Ozarbayjon), lingvistik terminlarning tarjima lug‘atini yaratish prinsipi belgilangan, lingvistik terminologiyaning rivojlanish bosqichlari tadqiq etilgan (Al-Farobiy nomidagi Qozog‘iston milliy universiteti, Qozog‘iston), qirg‘iz tili grammatik terminlari tizimi aniqlangan (Bishkek davlat universiteti, Qirg‘iziston), turkman tili lingvistik terminologiyasini ishlab chiqish prinsiplari aniqlangan (Ashxobod davlat universiteti, Turkmaniston), qoraqalpoq tili lingvistik terminologiyasi shakllanishi va rivojlanishi o‘rganilgan (Al-Farobiy nomidagi Qozog‘iston milliy universiteti, Qozog‘iston), o‘zbek tili grammatik qurilishi tarixio‘rganilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti, o‘zbekiston), o‘zbek tili morfologik, sintaktik tizimi terminlari tahlil qilingan (Samarqand davlat universiteti, Andijon davlat universiteti).

² Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi [google.scholar.com](https://www.google.com); www.bu.edu; americanenglish.state.gov; micros.uz; www.uv.es; www.zora.uzh.ch; cleee@snu.ac.kr; www.u-tokyo.ac.jp/en; www.ras.ru; adwww.ecu.edu.au; unice.fr/en; www.sophia.ac.jp/eng; www.msu.ru; www.vsu.bu; www.education.ua/universities; www.kaznu.kz; www.navoiy-uni.uz va boshqa mabalar asosida amalga oshirildi.

Shuningdek, dunyo terminografiyasi va leksikografiyasida lingvistik terminosistemasida milliy, baynalmilal terminlarning o'rnini aniqlash, filologik va ensiklopedik lug'atlarda terminlarni izohlash tamoyillarini ishlab chiqish, lug'at maqolalarining semantik tasnifini ishlab chiqish, terminologiyaning ideografik tavsifi tamoyillarini ishlab chiqish, lingvistik terminlarning tarjima lug'atini yaratish prinsipini belgilash, turli tizimli tillarda lingvistik terminologiyaning rivoshlanish bosqichlarini aniqlash, turli tillar terminosistemasini tizimlashtirish kabi ustuvor yo'nalishlarida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida terminologiya va uning nazariy asoslari, tilshunoslik terminlari va ularning shakllanishi, tartibga solinishi kabi masalalar G.O.Vinokur, V.V.Vinogradov, A.A.Reformatskiy, O.S.Axmanova, A.M.Shcherbak, V.P.Danilenko, A.N.Kononov, Ye.A.Kolesnikova, V.M.Boguslavskiy singari olimlarning tadqiqotlarida maxsus o'rganilgan³. Ayni shunday masalalar, tilshunoslik terminosistemalarining shakllanishi va taraqqiyoti masalalari, tilshunoslik terminologiyalaridagi kamchilik va nuqsonlar, sinonimiya va uni bartaraf etish muammolari ozarbayjon, qozoq, qirg'iz, turkman, qoraqalpoq, chuvash kabi asosiy turkiy tillar hamda tojik tili terminologiyalarida ham tadqiq etilgan⁴.

O'zbek tilshunosligida esa X.Komilova, S.Fuzailov, A.G'ulomov, V.V.Reshetov, S.Nizomiddinova, A.Hojiyev, L.V.Reshetova, D.Xudoyberganova va boshqalarning monografiya, dissertatsiya va lug'atlarida yoritilgan⁵.

³ Винокур Г.О. О некоторых явлениях словообразования и русской технической терминологии // Труды МИФЛИ. Т.5. Сборник статей по языковедению. – М.: 1939. – С.3-54; Виноградов В.В. Русский язык. Грамматическое учение о слове. Изд. 2. – М.: Высшая школа, 1972; Виноградов В.В. Избранные труды: Лексикология и лексикография. – М.: Наука, 1977; Виноградов В.В. Избранные труды: Исследования по русской грамматике. – М.: Наука, 1975; Реформатский А.А. Что такое термин и терминология // Вопросы терминологии. – М.: Изд. АН СССР, 1961. – С. 46-54; Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. Изд. 2. – М.: Советская энциклопедия, 1969; Щербак А.М. Очерки по сравнительной морфологии тюркских языков (Имя). – М.: Наука, 1977.; Даниленко В.П. Русская терминология. Опыт лингвистического описания. – М.: 1977; Кононов А.Н. В.В.Радлов и отечественная тюркология // Тюркологический сборник. 1971. – М.: Наука, 1972. – С. 7-15; Богуславский В.М. Слово и понятие / Мышление и язык. – М., 1957; Колесникова Е.А. Русская лингвистическая терминология второй половины XVIII.-первой трети XX вв.. – Красноярск, 2005.

⁴ Баскаков Н.А. К вопросу о грамматических терминах в среднеазиатских языках // Просвещение национальностей. – М., 1961. – №2. – С. 28-39; Дмитриев Н.К. Грамматическая терминология в учебниках родного языка. – М., 1965; Оруджев А.А. Основные принципы составления терминологии // Труды Института языка АН Азербайджана, т. I. – Баку, 1967; Дилчилик терминлари луг'ати / редакторлари: Р.Рустамов, М.Ширалиев, Ж. Эфандиев. – Баку, 1957; Кенесбаев С., Жанузаков Т. Лингвистикалык терминдердин кыскаша орысша-казакша создиги. – Алматы, 1956; Кенесбаев С., Жанузаков Т. Русско-казахский словарь лингвистических терминов. – Алма-ата, 1966; Молдажаров Ж.М. Становление и развитие казахской лингвистической терминологии: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Алма-ата, 1971; Орузбаева Б.О. Русско-киргизский словарь лингвистических терминов. – Фрунзе, 1972; Закирова В. Грамматические термины в киргизском языке: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Фрунзе, 1973; Амансариев Ж. Туркмен дилининг лингвистик терминлери дугуне салмак хакында. – Ашгабад, 1951; Филющина В.Н. К истории формирования туркменской лингвистической терминологии: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Ашхабад, 1973; Насыров Д.С., Бекбергенов А., Жарымбетов А. Русша-каракалпакша лингвистикалыктерминлар созлиги. – Нокис, 1979; Пирниязов К. Формирование и развитие каракалпакской лингвистической терминологии. Автореф. дисс.канд. филол. нук. – Алма-ата: 1981; Данилова М.Г. Чувашская лингвистическая терминология. Опыт изучения национального и интернационального компонентов в терминологической системе: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Чебоксари, 2004; Рустамов М. Таджикская грамматическая терминология. – Душанбе: Дониш, 1972.

⁵ Комилова Х. Ўзбек тилида сон ва олмош. Ҳозирги замон ўзбек тили курсидан материаллар. – Т., ЎзФА нашр., 1953; Фузаилов С. Ўзбек тилида равиш. Ҳозирги замон ўзбек тили курсидан материаллар. – Т., ЎзФА нашр., 1953; Гуломов А. Феъл. Ҳозирги замон ўзбек тили курсидан материаллар. – Т., ЎзФА нашр., 1954; Решетов В.В. Краткий справочник по лингвистической терминологии. – Т., 1950; Низомиддинова С.

O'zbek tilida lug'atchilik, jumladan, ko'p tilli lug'atlar tuzish borasida ish olib borgan E. Umarxodjayevning tadqiqotlari⁶ ham diqqatga sazovor.

O'zbek tilshunosligida tilshunoslik terminlarning shakllanishi va taraqqiyoti masalalari A.Nurmonov, S.Ashirboyev, E.Fozilov, A.R.Chichulina, L.Reshetova, M.Qurbonova, B.To'ychiboyev, Sh.Bobomurodova, T.Tog'ayev, K.Kadirov, J.Eltazarovlarning ishlarida tadqiq etilgan⁷. Shunga qaramay, o'zbek tilshunoslik terminlarining lingvistik ensiklopedik lug'atida atamalarni kodirovka qilish bo'yicha tadqiqot yaratilmagan. O'zbek tilshunoslik terminlarini lingvistik ensiklopedik lug'atida kodirovka qilish terminologik tizimni mukammal va batafsil tasavvur etish imkoniyatini yaratadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Ushbu tadqiqot Andijon davlat chet tillari institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalariga muvofiq "Zamonaviy tilshunoslikning nazariy hamda amaliy muammo va yechimlari" mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi lingvistik atamalarni ensiklopedik lug'atlarda kodirovka qilishning nazariy asoslarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

ensiklopedik va terminologik lug'atlarning umumiy va farqli xususiyatlarini tadqiq etish;

jahon leksikografiyasida lingvistik ensiklopedik lug'atlar tajribasini o'rganish;

atamalar lug'atida lug'at maqolasining tuzilishini aniqlash;

ensiklopedik lug'at maqolasining o'ziga xosligini belgilash;

lingvistik atamalarni tavsifi metodologiyasini ishlab chiqish;

lingvistik atamalar so'zligini shakllantirish asoslarini dalillash;

turli tilshunoslik maktab qarashlarini ensiklopedik lug'atda ifodalash muammolarini aniqlash;

Ҳозирги замон ўзбек тилида сон. – Т.,ЎзФА нашр., 1963; Ҳожиёв А. Фёъл. – Т.,Фан, 1973; Ҳожиёв А. Ўзбек тили сўз ясалиши. – Т.,Ўқитувчи, 1989; Ҳожиёв А. Термин танлаш мезонлари. – Т.,Фан, 1996; Ҳожиёв А. Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясалишининг назарий масалалари. – Т.,Фан, 2010; Ҳожиёв А. Ўзбек тилшунослик терминологиясининг ҳозирги аҳоли ҳақида / Ўзбек тили терминологияси ва унинг тараккиёт перспективалари. I Республика терминология конференцияси материаллари. – Т.,Фан, 1986. – Б. 7; Ҳожиёв А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. –Т.,Ўқитувчи, 1985; Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. –Т.,Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002; Ҳожиёв А., Решетова Л. Ўзбек тили грамматик терминларининг қисқача изоҳли луғати. –Т.,Ўқитувчи, 1980; Худойберганова Д. Лингвокультурология терминларининг қисқача изоҳли луғати. – Т.,Turon zamin ziyo, 2015.

⁶ Умарходжаев М.И. Принципы составления многоязычного фразеологического словаря: автореф. дисс. канд. филол. наук. – Москва, 1972. – 27 с; Умарходжаев М.И. Основы фразеологии. – Ташкент: Фан., 1983. – 136 с.

⁷ Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Т.,2002; Аширбоев С. Ўзбек тили грамматик курилишининг ўрганилиш тарихидан (1875–1917 йиллардаги рус туркологларининг асарлари асосида): Филол. фан. номз.дисс. автореф. – Т.,1972; Чичулина Л.Л. Из история узбекского языкознания: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Т.,1975; Фозилов Э.И., Чичулина Л.Р. Русские тюркологи и узбекское языкознание. – Т.,Фан, 1979; Решетова Л.В. Грамматическая терминология узбекского языка: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Т., 1964; Курбонова М.М. Фитратнинг тилшунослик мероси: Филол. фан. номз. дисс. автореф. – Т., 1993; Тўйчибоев Б. Фитрат – тилшунос. – Т., 1995; Бобомуродова Ш.Э. Ўзбек тилшунослиги ривожига Элбекнинг роли: Филол. фан. номз. дисс. автореф. – Т., 2002; Тоғаев Т.М. Ашуралӣ Зоҳирӣ ва унинг тилшунослик мероси. Филол. фан. номз. дисс. автореф. – Т., 2005; Кадиров К.А. Ўзбек тили морфологик тизимининг ўрганилиш тарихидан: Филол. фан. номз.дисс. автореф. – Т., 2007; Элтазаров Ж.Д. Ўзбек тилида сўз туркумлари парадигмасидаги ўзаро алоқа ва кўчиш ҳоллари. – Т., 2006.

ko'p ma'noli va omonim lingvistik atamalarni tavsiflash muammolarini yoritish;

o'zbek tili lingvistik atamaları so'zligini tuzishning metodologik asoslarini aniqlash;

o'zbek tili lingvistik atamalarini tavsiflash bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

umumiy lingvistik atamalarni o'zbek tili lingvistik atamalar lug'atida aks ettirish tamoyillarini taklif etish.

Tadqiqotning obyekti sifatida lingvistik atamalar tanlangan.

Tadqiqotning predmetini lingvistik atamalarni ensiklopedik lug'atlarda kodirovka qilishning nazariy asoslari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda tavsifiy, chog'ishtirma, kontekstual, lingvostatistik, komponent va pragmatik tahlil metodlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

terminografiyada termin tavsifining (1) umumiy ta'rif (definitsiya); (2) qismlı ta'rif; (3) operatsion ta'rif; (4) kombinatsiya qilingan ta'rif; (5) havola beruvchi izoh; (6) ensiklopedik ta'rif kabi ko'rinishlari farqlangan; ensiklopedik lug'at maqolalarining umumiy tavsifiy maqola; ma'lumotnoma-maqola; izoh-maqola (faqat izoh, agar boshqa tildan o'zlashgan bo'lsa, etimologiyasi beriladi); havola-maqola (boshqa terminga havola beruvchi maqola) kabi *ko'rinishlari* farqlangan;

ensiklopedik lug'atni ajratib turuvchi ilmiy nazariya tavsifi, tarixiy voqea, geografik, biografik, statistik ma'lumotlar mavjudligi kabi xususiyatlar yoritilgan; so'zni izohlashning grafik, fonetik, grammatik, semantik, struktur boshqa mezonlari farqlangan; terminlar ko'p ma'noliligining (ular mansub bo'lgan sohalarga qarab) uch ko'rinishi soha ichidagi polisemiya; sohalararo polisemiya; maxsus sohalarda tashqarisidagi polisemiya aniqlangan; terminning ma'nosi ikki omil: tushunchani aniq va to'g'ri anglashga bo'lgan intilish (1) hamda muloqot (nutq) ning yetarli darajada moslashuvchanligiga erishish (2) asosida shakllanishi ochib berilgan;

ideografik lug'at maqolasi yadro (asosiy termin), terminologik yadro periferiyasini shakllantiruvchi so'z birikma termindan tashkil topishi, tarkibida sarlavhali terminning aksentologik va qisqacha grammatik tavsifi; atamalarning xorijiy til(lar)dagi ekvivalenti; asosiy (yadro) termin tavsifi; atamaning tarjima ekvivalentlari bilan atama sifatida va umumiste'mol leksikadagi valentligini ko'rsatuvchi ta'rif (yoki valentlikni ko'rsatuvchi misollar); terminologik birlikning derivatsion imkoniyatini xorijiy tildagi ekvivalenti bilan tavsiflash; illyustrativ misollar bo'lishi ochiqqlangan;

terminlar birikmasi hosil bo'lishining ot turkumiga mansub terminning xususiyatlarini ifodalovchi sifat yoki ravishlar bilan aniqlovchi – aniqlanmish birikmasini hosil qilish, ot turkumiga mansub terminning turlovchi shakllar bilan kelish, bosh so'z boshqa birikmali termin tarkibida tobe so'z bo'lib kelish, bosh so'z bilan birikishi mumkin bo'lgan fe'llar bilan hosil bo'ladigan turlari aniqlangan;

izohlarning umumiy ta'riflar (definitsiya), qismlı ta'riflar (faqat bir butunning bir qismi yoki qismlar to'plami bo'lgan atamalar uchun ishlatiladi), operatsion

ta'riflar (kattalik, uzunliko'lvohvlari toifasidagi atamalar xapaktepidikasi; ular aniqlanayotgan miqdorni belgilash yoki topish usulini ko'rsatadi), kombinatsiya qilingan (turlil belgilar birlashtirilgan) ta'riflar (bir qancha alohida turlardan iborat bo'lib, kelib chiqishiga ko'ra o'zlashma bo'lgan eski atamalariga xos) turlari tavsiflangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ensiklopedik, terminologik lug'atlarning umumiy/farqli xususiyatlari aniqlanib, lug'at so'zligini saralashda terminlarga qo'yilgan tizimlilik, qisqalik, aniqlik, oddiqlik, so'z yasalish imkoniga egalik, evfoniya (eshitilishi yoqimli bo'lish), adabiy til va lisoniy me'yorlarga moslik kabi minimal talablar ishlab chiqilgan;

lug'at terminlarining mavzuiy ko'rsatkichida "tilshunosl." mavzuiy guruhida yo'nalish va an'ana, tashkilotlar; alohida til oilasi va tillar tadqiqiga oid terminlar; tilshunoslik bilan bog'liq jarayonlar yoki tilshunoslik leksikografiyasi; jahon tillari; til siyosati va menejmenti; tilshunoslik sohalari mavzuiy to'dalar so'zlik minimumi ishlab chiqilgan;

o'zbek tili lingvistik atamalarini tavsiflash, lug'at maqolasining tuzilishi va tarkibi bo'yicha tavsif berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy-uslubiy va ilmiy-amaliy konferensiyalarda qilingan ma'ruzalar, ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, xulosalar, taklif hamda tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati instruktiv diskursning og'zaki hamda yozma nutq diskurslarda ko'rinishlari va lingvokulturologik, sotsiolingvistik va kommunikativ-pragmatik jihatlari, diskursni tadqiq etishga oid nazariy xulosalardan tilshunosning sotsiolingvistika, pragmalinvistika, lingvokulturologiya yo'nalishlaridagi ishlarda manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishdagi ilmiy xulosalar va tahlillardan "Leksikografiya asoslari", "Nazariy va amaliy leksikografiya", "Leksikologiya" fanlaridan darslik, o'quv qo'llanma, lingvistik ensiklopedik lug'atlarni yaratishda mazkur dissertatsiya metodik asos sifatida qo'llanishi mumkin.

Tadqiqot natijalarning joriy qilinishi. Olingan ilmiy natijalar quyidagi ishlarda joriylangan:

ensiklopedik lug'atni ajratib turuvchi ilmiy nazariya tavsifi, tarixiy voqea, geografik, biografik, statistik ma'lumotlar mavjudligi kabi xususiyatlar, shuningdek, so'zni izohlashning grafik, fonetik, grammatik, semantik, struktur boshqa mezonlari, terminlar ko'p ma'noliligining (ular mansub bo'lgan sohalarga qarab) uch ko'rinishi soha ichidagi polisemiya, sohalararo polisemiya va maxsus sohalar tashqarisidagi polisemiya, bundan tashqari, terminning ma'nosi ikki omil: tushunchani aniq va to'g'ri anglashga bo'lgan intilish hamda muloqot (nutq)ning yetarli darajada moslashuvchanligiga erishish xususida olingan ilmiy xulosalardan 2019-2021-yillarga mo'ljallangan Namangan muhandislik-texnologiya

institutining “EMI (English as a Medium of Instruction)” xalqaro loyiha doirasida foydalanilgan (Namangan muhandislik-texnologiya institutining 2025-yil 21-apreldagi 1376-024-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, atamalarning xorijiy til(lar)dagi ekvivalenti; asosiy (yadro) termin tavsifi; atamaning tarjima ekvivalentlari bilan atama sifatida va umumiste’mol leksikadagi valentligini ko’rsatuvchi ta’rif (yoki valentlikni ko’rsatuvchi misollar); terminologik birlikning derivatsion imkoniyatini xorijiy tildagi ekvivalenti bilan tavsiflashda foydalanishlari mumkinligi aniqlangan;

terminlar birikmasi hosil bo’lishining ot turkumiga mansub terminning xususiyatlarini ifodalovchi sifat yoki ravishlar bilan aniqlovchi – aniqlanmish birikmasini hosil qilish, ot turkumiga mansub terminning turlovchi shakllar bilan kelish, bosh so’z boshqa birikmali termin tarkibida tobe so’z bo’lib kelish, bosh so’z bilan birikishi mumkin bo’lgan fe’llar bilan hosil bo’ladigan turlari haqidagi ilmiy xulosalardan Davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasidagi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o’zbek tili va adabiyoti universitetining 2020-2023-yillarda amalga oshirilgan AM-FZ-201908172 – “O’zbek tilining ta’limiy korpusini yaratish” nomli grant loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o’zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 17-martdagi 01/4-979-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, terminlar birikmasi ot turkumiga mansub terminning xususiyatlarini ifodalovchi sifat yoki ravishlar bilan aniqlovchi – aniqlanmish ko’rinishida, ot turkumiga mansub terminning turlovchi shakllar bilan kelishi ko’rinishida, bosh so’z boshqa birikmali termin tarkibida tobe so’z bo’lgan ko’rinishida, bosh so’z bilan birikishi mumkin bo’lgan fe’llar bilan hosil bo’ladigan ko’rinishidagi turlari mavjud ekanligiga doir yangi nazariy qarashlar bilan boyitishda foydalanilgan;

izohlarning umumiy ta’riflar (definitsiya), qismli ta’riflar(faqat bir butunning bir qismi yoki qismlar to’plami bo’lgan atamalar uchun ishlatiladi), operatsion ta’riflar (kattalik, uzunlik o’lchovlari toifasidagi atamalar xarakteristikasi; ular aniqlanayotgan miqdorni belgilash yoki topish usulini ko’rsatadi), kombinatsiya qilingan (turli belgilar birlashtirilgan) ta’riflar (bir qancha alohida turlardan iborat bo’lib, kelib chiqishiga ko’rao’zlashma bo’lgan eski atamalariga xos) turlari xususida olingan ilmiy natijalardan Andijon davlat universitetining 70230101 – Lingvistika (o’zbek tili) (ta’lim yo’nalishi (mutaxassisligi)) magistratura talabalari uchun yozilgan “Tilshunoslik ilmiy tadqiqot metodologiyasi” (“Hayot nashri - 2020” nashriyoti, Andijon,2025) darsligida foydalanilgan (Andijon davlat universitetining 2025-yil 7-iyuldagi 04-2723-sonli ma’lumotnomasi). Natijada terminlar birikmasi ot turkumiga mansub terminning xususiyatlarini ifodalovchi sifat yoki ravishlar bilan aniqlovchi – aniqlanmish ko’rinishida, ot turkumiga mansub terminning turlovchi shakllar bilan kelishi ko’rinishida, bosh so’z boshqa birikmali termin tarkibida tobe so’z bo’lgan ko’rinishida, bosh so’z bilan birikishi mumkin bo’lgan fe’llar bilan hosil bo’ladigan ko’rinishidagi turlari mavjud ekanligiga doir yangi nazariy qarashlar bilan boyitishga xizmat qilgan;

dissertatsiyada keltirilgan ensiklopedik lug’atni ajratib turuvchi ilmiy nazariya tavsifi, tarixiy voqea, geografik, biografik, statistik ma’lumotlar mavjudligi kabi xususiyatlar, so’zni izohlashning grafik, fonetik, grammatik, semantik, struktur

boshqa mezonlari hamda terminlar ko'p ma'noliligi haqidagi ilmiy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2022-2024-yillarda amalga oshirilgan IL-402104209 – “Axborot qidiruv tizimlari uchun avtomatik ishlov berish vositasi – o'zbek tilining morfoleksikoni va morfologik analizatori dasturiy vositasini yaratish” nomli innovatsion loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 3-iyuldagi 01/4-2931-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, terminlar birikmasi ot turkumiga mansub terminning xususiyatlarini ifodalovchi sifat yoki ravishlar bilan aniqlovchi – aniqlanmish ko'rinishida, ot turkumiga mansub terminning turlovchi shakllar bilan kelishi ko'rinishida, bosh so'z boshqa birikmali termin tarkibida tobe so'z bo'lgan ko'rinishida, bosh so'z bilan birikishi mumkin bo'lgan fe'llar bilan hosil bo'ladigan ko'rinishidagi turlari mavjud ekanligiga doir yangi nazariy qarashlar bilan boyitishda foydalanilgan;

ideografik lug'at maqolasi yadro (asosiy termin), terminologik yadro periferiyasini shakllantiruvchi so'z birikma termindan tashkil topishi, tarkibida sarlavhali terminning aksentologik va qisqacha grammatik tavsifi; atamalarning xorijiy til(lar)dagi ekvivalenti; asosiy (yadro) termin tavsifi; atamaning tarjima ekvivalentlari bilan atama sifatida va umumiste'mol leksikadagi valentligini ko'rsatuvchi ta'rif (yoki valentlikni ko'rsatuvchi misollar); terminologik birlikning derivatsion imkoniyatini xorijiy tildagi ekvivalenti bilan tavsiflashga oid ilmiy natijalardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O'zbekiston-24” ijodiy birlashmasi “O'zbekiston” teleradiokanali tomonidan tayyorlangan “Ta'lim va taraqqiyot” “Millat va ma'naviyat”, “Adabiy jarayon”, “Jahon adabiyoti” nomli eshittirishlarida (2025-yil fevral va mart oylari) foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2025-yil 26-martdagi 05-09-374-son ma'lumotnomasi). Natijada, eshittirishlarning ilmiy saviyasi ortgan hamda matn materialini tahlil qilish jarayonida izohlarning umumiy ta'riflar (definitsiya), qismli ta'riflar (faqat bir butunning bir qismi yoki qismlar to'plami bo'lgan atamalar uchun ishlatiladi), operatsion ta'riflar (kattalik, uzunlik o'lchovlari toifasidagi atamalar xapaktepistikasi; ular aniqlanayotgan miqdorni belgilash yoki topish usulini ko'rsatadi), kombinatsiya qilingan (turli belgilar birlashtirilgan) ta'riflar (bir qancha alohida turlardan iborat bo'lib, kelib chiqishiga ko'ra o'zlashma bo'lgan eski atamalarga xos) turlarini dalillash orqalio'rganilganligi ta'minlagan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishi natijalari 4 ta jumladan, 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza ko'rinishida bayon etilgan va aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 18 ta ilmiy ish nashr etilgan. Jumladan, 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta ilmiy maqola, ulardan 1 tasi xorijiy jurnallarda chop qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 4 bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan bo'lib, jami 222 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsad va vazifalari, shuningdek, tadqiqotning obyekt va predmetlari tavsiflangan, tadqiqot ishining O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiliklar va tadqiqotning amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot ishini amaliyotga joriy qilish, chop etilgan ishlar hamda dissertatsiya tuzilishi va hajmi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Tadqiqotning **I bobi “Lingvistik atama va ensiklopedik lug‘at xususida”** deb nomlangan. Bobda ensiklopedik lug‘atning umumiy xususiyatlari, atamalar lug‘atining umumiy va farqli tomonlari hamda jahon leksikografiyasida lingvistik ensiklopedik lug‘atlar tavsifi tahlil qilinadi.

Bobning 1.1-paragrafida *ensiklopedik lug‘atning umumiy xususiyatlari* tavsiflanadi.

Ensiklopedik lug‘at predmet, shaxs, hodisa, tushuncha haqida u yoki bu so‘z bilan izohlanadigan lug‘atdir. Bundan farqli ravishda lingvistik lug‘atda so‘zning ma‘nosi va qo‘llanishi haqida ma’lumot beriladi. Lingvistik lug‘at tabiiy tildagi matnlar tahlili va ularni tizimlashtirish asosida so‘zlar ro‘yxatini ham aks ettiradi. Ensiklopedik lug‘atdan tushuncha ifodalansa, lingvistik lug‘atda lisoniy birliklar izohlanadi. Odatda, lingvistik lug‘atlar ensiklopedik lug‘atlarga qarama-qarshi qo‘yiladi. Ammo bu yondashuv doim ham to‘g‘ri emas⁸. Ensiklopedik lug‘atdan farqli ravishda terminologik lug‘at ma’lum bir soha yoki fanga oid terminlarning maxsus tipli glossariysi, bu terminlar faqat ro‘yxat shaklida emas, odatda, izohi bilan keltiriladi. Lug‘atning alohida bir tipini ajratish uning tarkibida saqlanadigan ma’lumot mazmuni va shakliga bog‘liq bo‘ladi. Yana shunday ta’riflar ham uchraydi: “Ensiklopediya lug‘at emas, uning leksikografiyaga aloqasi yo‘q. Uni lug‘at deb atashga asos bo‘ladigan yagona sabab tushunchalarning lug‘atdagi kabi tartib bilan berilishidir”⁹. Ammo bugun leksikograflar boshqa nuqtai nazarni qo‘llab-quvvatlashadi: “Lingvistik lug‘atning asosiy “qahramoni” – so‘z; ensiklopedik lug‘atning “bosh qahramoni” narsa, realiya va uning belgilaridir. Tilshunoslar so‘zlarning mohiyatini tavsiflashadi, ularning shakli va ma‘nosini izohlashadi, ensiklopediya mualliflari esa zamon/makon va boshqa xususiyatlarga ega bo‘lgan borliq va uning predmetlari tizimlashtirishadi. Ammo bu ikki hodisa orasiga devor qo‘yish to‘g‘ri emas: tilshunoslar ham narsalarga murojaat qilganidek, entsiklopedistlar ham so‘zga ehtiyoj sezishadi. “Narsa” va “so‘z” orasidagi chegara bizning ongimizdagina mavjud, haqiqatda esa ular oarsidagi farqni hissiy jihatdan sezish qiyin”. V.P.Petushkov, V.N.Sergeyevlarning fikricha,

⁸https://stilistics.academic.ru/353/%D0%BB%D0%B8%D0%BD%D0%B3%D0%B2%D0%B8%D1%81%D1%82%D0%B8%D1%87%D0%B5%D1%81%D0%BA%D0%B8%D0%B9_%D1%81%D0%BB%D0%BE%D0%B2%D0%B0%D1%80%D1%8C(murojaat sanasi: 07.07.2023)

⁹https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%A2%D0%B8%D0%BF%D0%BE%D0%BB%D0%BE%D0%B3%D0%B8%D1%8F_%D1%81%D0%BB%D0%BE%D0%B2%D0%B0%D1%80%D0%B5%D0%B9 (murojaat sanasi: 07.07.2023)

ayrim holatlarda lingvistik akademik lugʻatlarda baʼzi soʻzlar (maxsus leksika) izohini berishda ensiklopedik lugʻatga xos belgilar ham uchrab turadi. Tadqiqotchilar bunday yondashuvni muvaffaqiyatsiz deb baholashadi. Har bir lugʻatda oʻzining xususiyatidan kelib chiqqan taʼriflash usulini qoʻllash yaxshi natija beradi. Bunday akademik lugʻatlarda maxsus soʻzlarning “filologik” usulda izohlanishi termin maʼnosini ochishda qusurlar borligini koʻrsatadi¹⁰. Izohli lugʻatlarda ensiklopedik lugʻatga xos taʼrifni keltirish notoʻgʻri yondashuv deb hisoblaymiz.

Termin va uning ensiklopedik lugʻatda berilishi. Adabiy tilning umumiy lugʻatlarida terminlarni izohlash masalasiga toʻxtalar ekan, tilshunoslar L.V.Sherbaning “Опыт общей теории лексикографии”¹¹ degan tadqiqotini eslamay oʻtishmaydi. L.V.Sherbaning ensiklopedik va filologik lugʻatlarni farqlashda, bu zidlanishga tavsiflash obʼekti va definitsiya asos boʻladi. Olimning taʼkidlashicha, ensiklopedik lugʻatning tavsif obʼekti ilmiy tushuncha, filologik lugʻatning tavsif obʼekti lisoniy maʼno ekanligini taʼkidlaydi. Terminning maʼnosi adabiy tilning ommabop va ilmiy uslubida teng emas. Ilmiy uslubda ilmiy maʼno, ommabop uslub, adabiy tilda esa kundalik hayotdagi tasavvur aks ettiriladi¹². Masalan, toʻgʻri *chiziq* geometriyada “*ikki nuqta orasidagi qisqa masofa*” deb tushuniladi. Tabiiyki, adabiy tilda bu tushuncha boshqa maʼno kasb etadi. Adabiy tilda (oʻzbek olam lisoniy manzarasida) toʻgʻri *chiziq*“ oʻng yoki chapga qayrilmagan toʻgʻri chiziq”dir. Demak, ensiklopedik va filologik definitsiya farqlanadi¹³.

Filologik va ensiklopedik lugʻatlarda terminlarni izohlash farqli, taʼrif obʼektining nima ekanligi bilan bogʻliq emas. Ayni bir birlikni turli tipdagi lugʻatlarda aks ettirish bilim turli darajasiga qaraladi. Ensiklopedik lugʻatda terminning zamonaviy mavqei (hozirgi ilmiy qarash)ni ifodalashga qaratilsa, filologik lugʻat bunga zid. Chunki filologik (umumiy) lugʻat oldida ikkita vazifa turibdi: birinchidan, u maʼlumot berish vositasi sifatida xizmat qilishi kerak. Ikkinchidan, lugʻat til jamiyatining u yashab turgan davrdagi “tipik” bilimlarni aks ettiradi. Baʼzi hollarda ilmiy taʼriflar va kundalik turmushda ishlatiladigan maʼno (izoh) orasida farq boʻlmasligi ham mumkin. Bunday holat tarixiy terminlar orasida uchraydi¹⁴. Demak, ensiklopedik va filologik lugʻatlar materialning sharhlanishi va sifati bilan farq qiladi.

Bobning 1.2-paragrafida *atamalar lugʻatining umumiy va farqli tomonlari* tahlil qilinadi. Terminologik lugʻatlar bir yoki bir necha fan yoki soha faoliyati

¹⁰ Петушков В.П., Сергеев В.Н. О классификации словарей / Проблематика определений терминов в словарях разных типов. Под. ред. С.Бархударова, В.Петушкова, Ф.Сороколетова. – Ленинград: Наука, 1976. – 267 с. – С. 13-14.

¹¹ Щерба Л.В. Опыт общей теории лексикографии / Щерба Л.В. Избранные работы по языкознанию и фонетике. – т. 1. – Л., 1958.

¹² <https://www.ruthenia.ru/apr/textes/sherba/sherba 9.htm> (murojaat sanasi: 08.07.2023)

¹³ Кутина Л.Л. Термин в филологических словарях (к антитезе: энциклопедическое – филологическое) / Проблематика определений терминов в словарях разных типов. Под. ред. С.Бархударова, В.Петушкова, Ф.Сороколетова. – Ленинград: Наука, 1976. – 267 с. – С. 19-20.

¹⁴ Берков В.П. Заметки об определениях терминов в филологических и энциклопедических словарях / Проблематика определений терминов в словарях разных типов. Под. ред. С.Бархударова, В.Петушкова, Ф.Сороколетова. – Ленинград: Наука, 1976. – 267 с. – С. 114.

terminologik tizimini qamrab oluvchi lugʻatdir. Terminologik lugʻatlar anʻanaviy/qogʻoz, elektron, onlayn shaklda boʻlib, oʻzida turli fan, ishlab chiqarish, hunarmandlik sohalari hamda kundalik turmushga oid maxsus leksikaning terminologik tavsifini aks ettiradi. Terminologik lugʻatlar faqat soha mutaxassilari uchun ishlab chiqilmaydi, balki uning auditoriyasi keng boʻlishi ham mumkin. Masalan, yoʻshlar uchun aviatsiya atamaları lugʻati¹⁵ soha mutaxassislariga emas, balki keng oʻquvchilar ommasiga moʻljallangan. “Sirk” / “Teatr” kabi tematik terminlar lugʻati ham soha xodimlariga emas, balki madaniyat shaydolari, keng jamoatchilik uchun nashr etiladi. Bunday lugʻatlar sirasiga futbol qiziquvchilariga moʻljallangan lugʻat¹⁶ (turli sport turiga mansub bu kabi lugʻatlari tajribada kuzatildi)ni ham kiritish mumkin, undan “oʻnlikka kirish” kabi futbol jargonlari oʻrin olgan¹⁷.

Terminologik lugʻat lingvistik lugʻatlar ichida mashhur lugʻat deb boʻlmaydi. Ular son va tur jihatdan ancha kam. Terminologik lugʻat biror bir fan, tor soha yoki kasb doirasida qoʻllanuvchi termin va tushunchalardan tashkil topadi. Terminologik lugʻatdagi tizim va struktura kerakli terminni topishni osonlashtiradi. Bunday lugʻatlar orasida eng mashhuri bir fan / sohaga oid lugʻatlar boʻlib, ularda faqat bir sohaga mansub terminlar izohlanadi. Terminlar aniq va konkret ifoda usuliga ega boʻlishi zarur, noaniqlik va mavhumlik terminga xos emas. Terminologik lugʻatlarga xos boʻlgan belgilaridan biri bu lugʻat maqolasini ikki qismga boʻlishdir. Chap tomonda terminning oʻzi boʻlsa, oʻng tomonda terminning quyidagi belgilari aks etadi: mazkur termin qoʻllanuvchi soha nomi va xarakteristikasi; mumkin boʻlgan yasalmalar; terminning bevosita maʼnosi; terminning turkumga mansublik belgisi haqida maʼlumot; terminning soʻz birikmasida qoʻllanishi boʻyicha misollar¹⁸.

Terminologik lugʻatlar milliy madaniyatning ajralmas qismi sanaladi. Bu lugʻatlar soha bilimlari va maxsus leksikani aks ettirish, terminlarni tartiblash va terminlarning qoʻllanishini reglametnlash bilan xalqning madaniy taraqqiyot darajasini ham belgilaydi. Terminologik lugʻatlarning koʻplab tasniflari boʻlib, ular koʻp nuqtada oʻzaro kesishadi. Mavzuviy qamrab olinishiga koʻra: koʻp tarmoqli¹⁹, bir tarmoqli²⁰ va tor ixtisoslikka oid terminologik lugʻatlar farqlanadi²¹. Tavsiflanayotgan tillar soniga koʻra: bir tilli terminologik lugʻat²², ikki tilli²³, koʻp

¹⁵ Иллюстрированный авиационный словарь для молодежи. – М., 1964.

¹⁶ Словарь любителя футбола//https://www.club58.com.ua/boleschiky_slovar.htm(murojaat sanasi: 24.08.2023)

¹⁷ Петушков В.П., Сергеев В.Н. О классификации словарей / Проблематика определений терминов в словарях разных типов. Под. ред. С.Бархударова, В.Петушкова, Ф.Сороколетова. – Ленинград: Наука, 1976. – 267 с. – С. 16-17.

¹⁸ <https://znachenie-slova.ru/%D1%8D%D1%82%D0%BE-%D0%BB%D1%8E%D0%B1%D0%BE%D0%BF%D1%8B%D1%82%D0%BD%D0%BE/%D1%82%D0%B5%D1%80%D0%BC%D0%B8%D0%BD%D0%BE%D0%BB%D0%BE%D0%B3%D0%B8%D1%87%D0%B5%D1%81%D0%BA%D0%B8%D0%B5-%D1%81%D0%BB%D0%BE%D0%B2%D0%B0%D1%80%D0%B8>(murojaat sanasi: 24.08.2023)

¹⁹ Терминологический словарь по библиотечному делу и смежным отраслям знания. под ред. З.Б. Высоцкой. – М., 1995.

²⁰ Архитектурные термины: Иллюстрированный словарь А.С. Партиной. – М., 2001.

²¹ Сухова С.Словарь по ортопедии лошади. URL: www.lingvoda.ru/dictionaries/dictInfo_window.asp?dictId=47 (murojaat sanasi: 29.08.2023)

²² Словарь социолнгвистических терминов. Под ред. В.Ю.Михальченко. – М., 2006.

²³ Деревянко И.Г. Русско-английский и англо-русский словари лесотехнических терминов. – М., 2003.

tilli²⁴ lugʻatlar ajratiladi. Davrga nisbatiga koʻra yangi terminlar, zamonaviy va tarixiy, soʻzlikning hajmiga koʻra katta/toʻliq, oʻrta, qisqa va terminologik minimumlar lugʻatiga boʻlinadi. Maqsadiga koʻra terminologik lugʻatlarning izohli, tarjima, izohli-tarjimali, reglamentlovchi (mas., terminologik standartlar), axborot-qidiruv (mas., axborot tezauruslari, klassifikatorlar, rubrikatorlar), tizimlashtiruvchi (terminologik tizim lugʻatlari: mas., chastotali lugʻatlar, oʻxshash (mos) terminlar lugʻati, maktab lugʻati, ilmiy-ommabop, madaniyatlararo turlari mavjud. Lugʻat maqolasining chap tomoni (lugʻat maqolasi) tipiga koʻra terminlar lugʻati, terminoelementlar lugʻati, qisqartmalar lugʻatiga boʻlinadi. Soʻzlikning tartiblanishiga koʻra alifboli (aksariyat lugʻatlar shu tipga mansub), alifbo-uyali, ideografik, alifbo-relyatsion tezauruslar, gipertekstli lugʻatlarga ajratiladi.

Terminologik lingvistik lugʻatlar jahon leksikografiyasining muhim qismi boʻlib, tilshunoslik sohasida qoʻllaniladigan atamalarni tavsiflash, izohlash, tushuntirishga moʻljallangan. Ular lingvistik terminlarning maʼnolari, sintaktik xususiyatlari, qoʻllanilishi va boshqa xususiyatlari haqida maʼlumot beradi. Lingvistik terminologik lugʻatlarning oʻzini Y.K.Yakimovich tadqiqot lugʻatlari (1) va inventarizatsiyalovchi lugʻatlar(2)ni zidlantiradi. Uning fikriga koʻra, tadqiqot lugʻatlari maxsus lingvistik tadqiqot natijalarini aks ettiradi²⁵. Bunday lugʻatga etimologik, tarixiy hamda biror yozuvchi asarlari lugʻati kiradi. Inventarizatsiyalovchi lugʻatlarga tilning maʼlum qatlami soʻzlarini inventarizatsiyalash (roʻyxatga olish)ga qaratilgan boʻlib, sheva lugʻati, qofiya va epitelar lugʻati bunga misol boʻladi.

Bobning 1.3-paragrafida *jahon leksikografiyasida lingvistik ensiklopedik lugʻatlar tavsifi* keltiriladi. Lingvistik terminlar lugʻati maxsus soha (tarmoq)ning terminologik lugʻati boʻlib, D.E.Rozental, M.A.Telenkova, Z.A.Potixa, V.A.Kozisirev, V.D.Chernyak, A.N.Baranov, D.O.Dobrovolskiy, I.F.Protchenko, C.V.Lesnikov kabi olimlar lingvistik terminologik lugʻatlarni lugʻatning bir turi sifatida alohida guruhga ajratishadi. Rus leksikografiyasida lingvistik terminlar lugʻatlari sirasida O.S.Axmanovanning oldingi terminologik tajribani oʻzida umumlashtirgan, toʻrt – ingliz, ispan, nemis, fransuz tillariga tarjimai bilan berilgan 7000 ga yaqin termin izohini qamrab olgan lingvistik terminlar lugʻati (“Словарь лингвистических терминов”)²⁶ alohida oʻrin tutadi. Lugʻatda real qoʻllanuvchi termin izohidan tashqari illyustrativ misollarga ham ega: termin izohlayotgan lisoniy hodisalar namunasi, terminologik mikrosistema tasnifi ham keltiriladi. Mazkur nashrdan keyin qator lingvistik terminologik lugʻatlar nashr etilishiga qaramay haligacha bu lugʻat qimmatini yoʻqotmagan, mazkur lugʻatga talab kamaymagan.

Lugʻat materialini tashkil etish boʻyicha lingvistik terminlar lugʻatlarini quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Maxsus leksikani qamrab olishiga koʻra (soʻzlik tipiga koʻra):

²⁴ Англо-русский Словарь полезных растений на 20 европейских языках. – М., 1970.

²⁵ Якимович Ю. К. Типология словарных изданий. – В кн.: Книга. Исследования и материалы. Т. XXV. – М., 1972. – С. 28.

²⁶ Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М., 1966.

Ekstensiv tip umumiy, umumlingvistik terminologik lugʻatlardan iborat boʻladi. Bunday lugʻatlarning asosiy maqsadi tildagi terminlarni koʻproq qamrab olish va ularga umumiy taʼriflar berishdan iborat.

Intensiv tip – maxsus, chastotali lingvistik terminlar lugʻatidan tashkil topib, ular alohida lingvistik maktablar, alohida lingvistik fanlar, aniq lingvistik nazariyalar yoki tilshunoslikning biror boʻlimi terminlarini aks ettiradi.

XXI asr boshida zamonaviy leksikografiyada aralash sohalar yoki sohalar kesishmasida paydo boʻlgan fanga oid (adabiyotshunoslik, uslubiyat, jurnalistika, madaniyatshunoslik, metodika, arxivshunoslik, ish yuritish, ruhshunoslik, jamoatchilik bilan aloqalar, reklama va b.) intensiv tipdagi lingvistik terminlar lugʻati tuzish yetakchi tendensiyaga aylandi.

2. Lugʻat materialini shakllantirish usuliga koʻra:

Leksikonlar alifboli/tematik terminlar lugʻati.

Tezauruslar terminlar orasidagi semantik munosabatlar aks ettiriluvchi lugʻatlar²⁷. Terminni izohlashning tezaurus usuli (sinonim, antonim, korrelyatlari, deskriptorlari, qoʻllanilishi sohasiga ishora qiluvchi maʼlumotlar) oddiy (alifbo usulidagi) terminologik lugʻatlarda ham uchraydi. Bu turdagi lugʻat sifatida bizga ikkita xususiy lingvistik terminlar tezaurusi maʼlum. Birinchisi V.B.Smirenskiyning 3000 terminni qamrab olgan, 2007 yilda kompyuter versiyasi taqdim etilgan qidiruv tizimli tezaurusi²⁸dir.

3. Lugʻat maqolasi izohlarining informativligi darajasiga koʻra lingvistik terminlar lugʻati nomenklaturali soʻzliklar (indekslar, batafsil maʼlumot bilan taʼminlanmagan terminlar roʻyxati) hamda glossariylarga (minimal izohlangan (annotatsiyalangan terminlar roʻyxati) qarama-qarshi qoʻyiladi. Soʻzlik informativligi tezaurus qabul qilish, yaʼni terminlarni mavzusiga koʻra munosabatlarini ajratish bilan oshirilishi mumkin. Izohli (tushuntiruvchi) lingvistik terminlar izohlanishiga koʻra: a) ensiklopedik (tushuncha, termin haqida uning kelib chiqish tarixi, bir yoki bir necha talqini/izohi, illyustratsiya va bibliografiya); b) izohli (terminlarni definitsiya (farqlash) va bir necha misollar asosida tushuntirish) kabi turlarga boʻlinadi. Izohli lingvistik terminlar lugʻati, odatda, bir tilli boʻladi (baʼzan bosh soʻzning xorijiy tildagi ekvivalenti keltiriladi); nomenklaturali lugʻatlar esa, aksincha, ikki yoki koʻp tilli boʻlishi kuzatiladi, chunki ularning maqsadi ikki til terminologiyasini chogʻishtirish yoki qiyoslashdan iborat boʻladi²⁹.

Xulosa sifatida aytish lozimki, jahon leksikografiyasi va terminografiyasida lingvistik ensiklopedik lugʻat tuzish boʻyicha katta tajriba toʻplangan. Oʻzbek tili lingvistik terminologik lugʻatini tuzishda jahon tajribasiga tayanish oʻzbek tilida tuziladigan lingvistik terminologik lugʻatlarning jahon standarti darajasida boʻlishiga yordam beradi.

Tadqiqotning **II bobi “Lingvistik atamalarni ensiklopedik lugʻatlarda kodirovka qilishning nazariy asoslari”** deb nomlangan. Bobda atamalar lugʻatida

²⁷ Лесников С.В. Типология русских словарей лингвистической терминологии / Мир науки, культуры, образования. № 6 (31) 2011. – С. 6-10.

²⁸ Смиренский В.Б. Тезаурус информационно-поисковый по языкознанию / ред. А.Я. Шайкевич. – М., 2007.

²⁹ Лесников С.В. Типология русских словарей лингвистической терминологии / Мир науки, культуры, образования. № 6 (31) 2011. – С. 6-10.

lugʻat maqolasining tuzilishi, ensiklopedik lugʻat maqolasining oʻziga xosligi hamda lingvistik atamalarning tavsifi oʻrganiladi.

Bobning 2.1-paragrafida *atamalar lugʻatida lugʻat maqolasining tuzilishi* tadqiq etilgan.

X. Napxodjayeveva rus tilshunosi D.S.Lottega tayangan holda³⁰ deyarli barcha sohaviy terminologiya uchun umumiy boʻlgan, terminologiyada tartibsizliklarning yuzaga kelishiga sabab boʻluvchi quyidagi 8 ta jiddiy kamchiliklarni koʻrsatib oʻtadi: barcha terminologik tizimlarga xos jiddiy kamchilik bu – terminning polisemantikligidir; ikkinchi yirik nuqson terminning sinonimiyasidir. Termin-sinonim (dubletrlar)lar deganda bir tushunchani ifodalash uchun ikki va undan ortiq terminning isteʼmolda boʻlishi tushuniladi; terminologiyadagi uchinchi kamchilik bu – maʼlum bir tushunchani ifodalashga xizmat qiluvchi terminning anglatishi lozim boʻlgan tushuncha mohiyatiga uygʻun boʻlmasligidir; terminning koʻp komponentlardan iborat boʻlishi va natijada uni qoʻllashdagi noqulaylikdir. Bunda bir tushunchani ifodalashga xizmat qiluvchi termin ikki, uch va undan ortiq komponentlardan iborat boʻladi. Yana bir kamchilik bu – koʻp komponentli termin talaffuzining noqulayligidir. Aksariyat hollarda baʼzi tushunchalarni ifodalovchi terminlar isteʼmolda mavjud boʻlmaydi. Natijada bunday tushunchalar oʻta muhim va ahamiyatli boʻlishiga qaramasdan, keng tarqalish imkoniyatiga ega boʻlmaydi. Termin hosil qilishda u anglatishi lozim boʻlgan tushuncha mohiyati bilan oʻzaro tartiblilikning yetishmasligidir. Terminologiyani keragidan ortiq miqdorda xorijiy terminlar bilan toʻldirib tashlashdir. Holbuki, bunda tilning ichki manbalar hisobiga terminlar yasalishi, tilning tashqi manba hisobiga boshqa tillardan termin oʻzlashtirishni inkor etib, bu jarayondan chekinish nazarda tutilmaydi³¹. Bu fikrni keltirishimizdan maqsad, lugʻat maqolasini shakllantirishda, imkon boricha, termin koʻp maʼnoliligidan qochish, terminni aniq izohlash va sinonim terminlarni toʻgʻri qoʻllashdir.

V.V.Dubichinskiy izohli terminologik lugʻatda terminning izoh qismini ikkiga boʻlishni tavsiya etadi. Birinchi qism – terminning tizimli izohi, bu qismda semantik interpretatsiyalangan, tezaurus tipidagi tavsif beriladi. Ikkinchi qism – tizimlilik talablaridan xoli, erkin shakldagi, qisqa va tushunarli izoh. Terminografiyada izoh/tavsifning turli shakllari qoʻllanadi. Izohlarning turlarini qisqacha tavsiflaymiz.

1. Umumiy taʼriflar (definitsiya). 2. Qismli taʼriflar (faqat bir butunning bir qismi yoki qismlar toʻplam boʻlgan atamalar uchun ishlatiladi). 3. Operatsion taʼriflar (kattalik, uzunlik oʻlchovlari toifasidagi atamalar xarakteristikasi; ular aniqlanayotgan miqdorni belgilash yoki topish usulini koʻrsatadi). 4. Kombinatsiya qilingan (turli belgilar birlashtirilgan) taʼriflar (bir qancha alohida turlardan iborat boʻlib, kelib chiqishiga koʻra oʻzlashma boʻlgan eski atamalariga xos). Bunday aralash izoh tarkibi soʻz etimologiyasi (1), soʻzning kelib chiqishi haqida tarixiy maʼlumot (2) hamda umumiy terminologik tavsif (3)dan iborat boʻladi. Aralash izohlarning turli k oʻrinishlari boʻlishi, ularning tarkibi oʻziga xos boʻlishi

³⁰ Лотте Д.С. Основы построения научно-технической терминологии. – М., 1961. – С.7-8.

³¹ Нарходжаева Х.Ш. Ўзбек терминологик лексикографияси тадқиқи муаммолари. – Тошкент, 2019. – 52 б.

mumkin. 5. Havola beruvchi izoh (alifbo tartibida joylashgan terminlarga havola qiladi). 6. Ensiklopedik ta'riflar.

Bu ta'rif ensiklopedik lug'atdagi ta'rifni eslatadi, ammo lug'at ta'rifi bo'lganligi qisqaligi bilan farqlanadi.

V.P.Danilyenko standartlashtirilayotgan terminning lingvistik xarakteristikasini baholashda quyidagi savollar o'z javobini topishi lozimligini ta'kidlaydi:

I. Umumlisoniy talablar:

1. Standartlashtirilayotgan terminologiyaning grammatik vositalar bilan ifodalanishi.

2. Sheva, so'zlashuv uslubi elementlari va o'zlashma so'z (xorijiy ekvivalenti)ga munosabati.

3. Terminlarning leksik-semantik xususiyatlari (sinonimiya, polisemiya).

II. Standartlashtirilayotgan terminologiyaga qo'yilgan me'yoriy talablar:

1. Terminning adabiy til me'yorlari va terminologiyaning umumiy modellariga mos kelishi.

2. Terminologik tizimdagi termin yasalishi modellariga mos kelishi (so'z yasaliş strukturasi va modellariga bo'ysunishi).

3. Grammatik kategoriyalarning terminologiyada amal qilish o'ziga xosligi.

4. Terminologik konstruktsiyalar, ularning aniqlovchilariga qo'yilgan uslubiy talablarga mos tushishi³².

V.P.Danilyenko talablarni ikki guruhga ajratishini terminlarning umumlisoniy xususiyatlar hamda soha terminologik tizimiga xos aniq normativ belgilar asosida baholanish zarurati bilan asoslaydi.

Bobning 2.2-paragrafida *ensiklopedik lug'at maqolasining o'ziga xosligi* tadqiq etilgan.

Tuzilishiga ko'ra ensiklopediyalar alifboli (ensiklopediya materiali alifbo tarzida joylashadi) va sistematik turlarga bo'linadi. *Hajmiga ko'ra* katta (bir necha o'nlab tomlardan iborat), kichik (10-12 tomli), qisqa (4-6) hamda, odatda, "ensiklopedik lug'at" deb nomlanuvchi 1-3 tomli turlarga bo'linadi. Har bir ensiklopediya (turli sohalarga oid materiallar beruvchi) maxsus ishlab chiqilgan *mundarija* hamda *so'zlik* (lug'at maqolalarini tashkil etuvchi terminlarning to'liq ro'yxati)ga ega bo'ladi³³. Manbalarda ensiklopedik lug'at maqolalarining umumiy tavsifiy maqola; ma'lumotnoma-maqola; izoh-maqola (faqat izoh, agar boshqa tildan o'zlashgan bo'lsa, etimologiyasi beriladi); havola-maqola (boshqa terminga havola beruvchi maqola) kabi *ko'rinishlari* farqlanadi. *Birinchi va ikkinchi turdagi lug'at maqolasi* bir-biridan hajmi bilan farqlanadi; ular ensiklopedik lug'atni ajratib turuvchi xususiyat bo'lib, odatda, ilmiy nazariya tavsifi, tarixiy voqea, geografik, biografik, statistik ma'lumotlar kabi muammolarni yoritadi. Yanada ko'proq ma'lumot olish uchun lug'at maqolasi oxiridagi adabiyotga, tom oxiridagi adabiyotlar ro'yxatiga yoki maxsus "bibliografik" tomga havola beriladi³⁴.

³² Даниленко В.П. Русская терминология. Опыт лингвистического описания. – Москва: Наука, 1977. – 243 с. – С. 160.

³³ <https://www.booksite.ru/fulltext/1/001/008/126/748.htm>(murojaat sanasi 02.09.2023)

³⁴ <https://www.booksite.ru/fulltext/1/001/008/126/748.htm>(murojaat sanasi 02.09.2023)

Ensiklopediyalarda illyustrativ materiallar: xarita, reja, sxema, chizma (tarx), rasm, fotosurat, portret, faksimil, tanga va bayroqlar rasmi hajm va mazmun jihatdan ahamiyatli o'rinni egallaydi. ko'p jildli ensiklopediyalar yordamchi ko'rsatkichlar bilan ta'minlangan bo'ladi.

Filologik (lingvistik) lug'atlarni tavsiflashning asosiy ob'ekti til birliklaridir. Filologik turdagi lug'atlar odamlarning nutqiy faoliyatida foydalanadigan lisoniy vositalar borasidagi ma'lumotlarni saqlaydi. Bunday lug'atning ensiklopedik lug'atdan asosiy farqi o'quvchiga so'zni to'g'ri talaffuz qilish, yozma nutqning to'g'ri va ravon bo'lishiga erishish, boshqalar tomonidan yozilgan matnni to'g'ri tushunishga yordam beradigan ma'lumotlarni beradi. Lisoniy ma'lumotlarni qamrab olgan spravochniklardan foydalanish kishiga nutqiy ko'nikmalarning shakllantirishga yordam beradi. Ensiklopedik spravochniklarning asosiy obyekti mustaqil so'z, so'z birikma, mazkur tushuncha bilan bog'liq olam va shaxs haqidagi bilim (ma'lumot)lardir. Demak, ensiklopediya va spravochniklarda tilga oid bo'lmagan voqeliklar xarakterlanadi: ya'ni predmet va narsalar haqidagi bilimlarimiz, tabiat va jamiyat hodisalariga oid tushunchalar bayon qilinadi, kishilarning tarjimai holi keltiriladi, muhim voqealar haqida ma'lumotlar beriladi, tarixiy sanalar ko'rsatiladi. Ushbu turdagi lug'atlar atrofimizdagi olam haqidagi to'plamdir.

Demak, *birinchidan*, ko'p tilli ensiklopediyalarda so'zlik alifbo tartibida bo'lgan faqat bitta tildagi so'zni topish emas, balki alifbo tartibidagi ko'rsatkich yordamida boshqa tillardagi so'zlarni ham topib, uning tarjimasini ko'rish mumkin. *Ikkinchidan*, terminologik lug'at maqolasida so'zning etimologiyasi haqida ma'lumot berilsa (agar u o'zlashma termin bo'lsa, bu yanada muhim ahamiyat kasb etadi), ensiklopediyadan etimologik lug'at sifatida foydalanish imkoniyati paydo bo'ladi. Bu esa ensiklopediyaning ko'p funksiyaliligini yanada oshiradi.

Bobning 2.3-paragrafi "*Lingvistik atamalarning tavsifi xususida*" deb nomlangan.

Yondashuvga qarab, so'zni izohlashning turli mezonlari farqlanadi: grafik, fonetik, grammatik, semantik, struktur va boshqalar. Masalan, N.M.Shanskiy so'zdagi quyidagi asosiy xususiyatni til birligi sifatida ajratib ko'rsatadi: 1) fonetik shakllanganlik; 2) semantik valentlik; 3) bir urg'uga egalik; 4) leksik va grammatik o'ziga xoslik; 5) tovush va ma'noning doimiyliigi; 6) ma'noning yangilanishi; 7) yaxlitlik va bir xillik; 8) so'z birikmalarida qo'llanishning mustaqil qo'llanishdan ko'pligi; 9) izolyatsiyalanganlik; 10) nominativlik. Mazkur belgilardan so'zning izohini boshqa birliklardan farqlash uchun minimum sifatida 1) fonetik shakllanganlik; 2) semantik valentlik; 3) bir urg'uga egalik; 4) leksik va grammatik o'ziga xoslik kabi belgilarni ajratadi³⁵.

A. M. Axmetbekova lingvistik atamalar lug'atining minimal mikrotuzilmasining ikki shaklda taqdim etilishi mumkinligini ta'kidlaydi:

1. Lemma – Ta'rif – Misollar.
2. Lemma – o'zaro bog'liqlik.

³⁵ Шанский Н.М. Лексикология современного русского языка. – М., 1972. – С. 11.

Biroq lingvistik atamalar lug'atining mikrotuzilma xususiyatlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ma'lumotlar ko'lamini kengaytirish, lug'at maqolasi tarkibiy qismini murakkablashtirish, ularni yangi tavsiflar bilan boyitish, rivojlantirish va turli xildagi axborotlar bilan informativligini oshirishga moyillik kuchli³⁶.

Ensiklopedik lug'atlarni tuzish soha xususiyatidan kelib chiqadi. Psixologiyaga oid ensiklopedik lug'atlarning xususiyatini ikki katta nashr – katta psixologiya ensiklopediyasi hamda psixoanalitik termin va tushunchalar lug'atini qiyosiy tahlil qilamiz.

B.D.Sirenov boshqa olimlardan farqli ravishda lug'at strukturasi uchga: mega struktura, makro struktura va mikro strukturaga bo'ladi. Lug'at mega strukturasi "so'z boshi", "Kirish", "Lug'atdan foydalanish to'g'risida"gi maqolalar, "Shartli qisqartmalar ro'yxati", "Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati" va Lug'at korpusi (Asosiy qism), grammatik ocherk, geografik obyektlar ro'yxati kabi qismlardan iborat. Lug'atning asosiy qismidan tashqari barcha tarkibiy qismlar ilmiy-yordamchi apparatdir. Xorijiy leksikografiyada lug'at uchta yirik blokka bo'lingan – front matter (kirish qismi), middle matter (o'rta qismi) lug'at korpusi hamda back matter (yakuniy qismi) bo'lib, bu qismlarni "mega struktura" nomi ostida birlashtirish mumkin. Makro struktura lug'at korpusining umumiy tuzilishi, uning asosiy tarkibiy qismlari va lug'atning asosiy qismi bilan bog'liq bir qator (lug'at so'zligini shakllantirish tamoyillari, lug'at maqolasida so'zlarning lug'aviy shakllarini joylashtirishga oid savollar, dialektizmlar, terminologik va onomastik leksika, me'yoriylik tamoyiliga rioya qilish va bosh so'zning chastotali xususiyatlarini hisobga olish) leksikografik muammolarni hal qiladi³⁷.

B.D.Sirenovning fikricha, "*Lug'at mikro strukturasi* lug'at maqolasini lug'at makro strukturasi bilan farqli ravishda (murakkab tizim doirasida) mustaqil, alohida tizim sifatida tuzish muammolarini o'z ichiga oladi. Bunga lug'at maqolasining formati, tarkibining hajmi, lug'atda tavsiflangan til birligi haqidagi turli xil ma'lumotlarni taqdim etish usuli (etimologik, ensiklopedik, semantik, fonetik, grammatik, derivativ, stilistik, illyustrativ va boshqalar) kiradi"³⁸. Olimning ta'kidlashicha, lug'at maqolasi istalgan lug'atning asosiy tashkiliy unsuri sanaladi. Lug'at maqolasi yaxlit bo'lishi yoki qismlarga bo'lingan holda shakllantirilishi mumkin. Lug'at maqolasi strukturasi binar: u bosh so'z va bosh so'zni tavsiflovchi qismdan tashkil topadi.

E.V.Juchkova ensiklopediyalarni qiyosiy tahlil qilish uchun quyidagi parametrlarni taklif qiladi: 1) mavzuga yo'nalganlik; 2) tilga ixtisoslashganlik; 3) muvaqqat orientatsiya; 4) foydalanish yo'nalishi (lug'at maqsadi); 5) manzil yo'nalishi (o'quvchi); 6) lug'atning vazifasi; 7) lug'at hajmi; 8) lug'at birliklari tavsiflangan til darajasi.

Ro'yxatdagi parametrlar qandaydir darajada mega-, makro-, media- va mikro strukturalarda namoyon bo'ladi. Shuning uchun lug'atni qiyosiy tahlil qilishda keyingi omillar quyidagicha belgilanadi:

³⁶ Akhmetbekova A.M. Microstructure features of dictionaries of linguistic terms. Life Science Journal 2014. 11(6): 491-495. <http://www.lifesciencesite.com>. (murojaat sanasi: 25.07.2023)

³⁷ Цыренов Б.Д. Структура, типология и принципы семапизации в монгольско-русской лексикографии: автореф. диссер. докт. филол. наук. – Москва, 2017. – 45 с. – С. 39.

³⁸ Цыренов Б.Д. Структура, типология и принципы семапизации в монгольско-русской лексикографии: автореф. диссер. докт. филол. наук. – Москва, 2017. – 45 с. – С. 30-31.

1. Mega struktura parametrlari (kirish qismi, “lug‘atdan foydalanish tartibi” bo‘limining mavjudligi, mavzu doirasining tavsifi, lug‘atning asosiy qismi, turli ilovalar).

2. Makrotuzilma parametrlari, asosan, lug‘at maqolasini shakllantirish va tartibga solish tamoyillarini tanlash bilan bog‘liq.

3. Mikro struktura so‘zlikning tanlash va tashkil etish bilan bog‘liq parametrlar: 1) ro‘yxatga olish; 2) rasmiy; 3) etimologik; 4) atributiv; 5) tavsiflash, izohlash; 6) assotsiativ; 7) pragmatik; 8) illyustrativ; 9) tipografik mikro struktura³⁹.

Ensiklopedik va lingvistik lug‘atlarda birliklarni lingvistik kodirovka qilish – bu lug‘atdagi har bir birlik (so‘z, ibora, grammatik shakl va h.k.)ni maxsus leksikografik belgilar orqali tasniflash, ularning formal strukturasi hamda ma’nosi haqida ma’lumot berish jarayonidir. Bu jarayon kompyuterda lug‘at resurslarini tuzishda, NLP (Natural Language Processing) dasturlarida muhim ahamiyatga ega. Quyida bu jarayonning asosiy bosqichlari keltiriladi:

1. Birlikni aniqlash (identifikasiya) bosqichida lug‘atda qaysi birlik kodlanishi kerakligi aniqlanadi: leksik birlik (so‘z); frazeologik birlik (ibora); morfologik shakl (qo‘shimcha, son, kelishik va h.k.); sintaktik konstruksiya.

2. Formal tavsif (formalizasiya) bosqichida birlikning grammatik va leksik xususiyatlari belgilanadi: qismlar: asos, qo‘shimcha; morfologik kategoriyalar: son, kelishik, zamon; grammatik teglar: NOUN, VERB, ADJ va h.k.; Universal Dependencies teglar (zarurat bo‘lsa).

3. Kod orqali belgilash (kodirovka) bosqichida har bir birlikga standartlashtirilgan belgilar yordamida kod beriladi: kitob+N+SG+NOM – "kitob" so‘zi ot, yakka ot. Bu kodlashish morfologik analizatorlar uchun tushunarli bo‘lishi kerak

4. Ma’noviy kodlash (semantik anotasiya) bosqichida birlikning ma’nosi ham kodlanadi: polisemiya holatida bir nechta ma’nolar ajratiladi; semantik teglar: human, object, action, abstract va h.k.; WordNet yoki FrameNet kabi semantik bazalar bilan bog‘lanishi mumkin.

5. Sintaktik rolini ko‘rsatish bosqichida birlik gapda qanday rol o‘ynashi mumkinligi ko‘rsatiladi: egasi (subject), to‘ldiruvchi (object), hol (adverbial modifier); Dependency teglar bilan belgilanadi: nsubj, obj, obl, advmod va h.k.

6. Illyustratsiya bosqichida birlik qanday kontekstlarda ishlatilishi misollar bilan ko‘rsatiladi: ifodalanishi, uslubiy xususiyatlari shu birlikka misollar (tarjima lug‘atlariga xos)

7. Identifikator va indekslash bosqichida mashina tomonidan tez topilishi va qayta ishlanishi uchun har bir birlikga unikal identifikator (ID) beriladi.

Lingvistik kodirovka – bu lug‘atdagi birliklarni tilshunoslik nuqtayi nazaridan to‘liq va formal tarzda teglash, ularni kompyuterda qayta ishlashga yaroqli holga keltirish jarayonidir. Ensiklopedik lug‘atlarda bu jarayon yanada kengroq – tarixiy, etimologik va uslubiy ma’lumotlar bilan to‘ldiriladi. Lingvistik lug‘atlarda esa ko‘proq formal va tizimli tarzda amalga oshiriladi.

³⁹ Жучкова Е.В. Энциклопедический тип словаря в современной русскоязычной терминологии //https://elar.urfu.ru/bitstream/10995/28006/1/sk_2014-04.pdf(дата обращения: 29.07.2023.)

Tadqiqotning **III bobi “Turli tillar lingvistik atamalarini ensiklopedik lug‘atlarda kodirovka qilish tajribasi”** deb nomlangan. Bobda lingvistik atamalarning so‘zligini shakllantirish asoslari, turli tilshunos maktab qarashlarini ensiklopedik lug‘atda ifodalash muammosi hamda ko‘p ma’noli va omonim lingvistik atamani tavsiflash masalasi tahlil qilinadi.

Bobning 3.1-paragrafi *“Lingvistik atamalarning so‘zligini shakllantirish hamda terminlarni standartlashtirish asoslari”* deb nomlangan.

Terminografiya – maxsus terminologik lug‘atlarni ishlab chiqish nazariya va amaliyoti haqidagi fan. Bu kompleksli predmet bo‘lib, terminlar haqidagi atamashunoslik va lug‘atchilik asoslari – leksikografiyani birlashtiradi. Terminologiyada terminografiyaning o‘rni beqiyos, chunki mavjud terminlarni tartibga solish faqatgina ularni tartiblashtirish, unifikatsiyalash, lug‘atini tuzish va tavsiflash bilan amalga oshiriladi. V.V.Dubichinskiy bu borada quyidagilarni faqrlash kerakligini ta’kidlaydi:

*1. Tavsiflovchi terminografiya*ning vazifasi terminlarning aniq, lo‘nda va oddiy izohini ishlab chiqishdan iborat.

*2. Belgilovchi terminografiya*ning vazifasi yozma/og‘zaki ilmiy muloqotda qaysi atama qo‘llanilishi kerakligini ko‘rsatishdir⁴⁰.

S.I.Ojegov ham terminografiyaning ahamiyatini quyidagicha baholagan: “Bir tomondan, soha terminologik boyligini ko‘rsatuvchi terminlarni to‘plashga qaratilgan lug‘atlar tuzilgani ma’qul bo‘lsa, ikkinchi tomondan, kodifikatsion tipdagi lug‘atlarni tuzish muammosi ham dolzarb bo‘lishi kerak”⁴¹.

Terminografiyaning a) tizimlashtiruvchi; b) ma’lumot beruvchi; c) o‘rgatuvchi (ta’limiy) kabi uch asosiy vazifasi ko‘rsatiladi. Mazkur tasnifdan kelib chiqilsa, terminologik lug‘at so‘zligi fan yoki soha terminlarini umumlashtirish, mazkur terminlar haqida ma’lumot berish va terminlarni o‘rgatish maqsadini ko‘zda tutib shakllantiriladi.

V.V.Morkovkin funktsional bog‘langan matnlar lug‘atining tabaqalanish modeli asosida, odatda, funktsional bog‘liqligi bilan farq qiluvchi besh qatlamini ajratadi:

- a) keng qo‘llanishdagi leksika;
- b) umumiy ixtisoslashgan noterminologik leksika;
- v) umumiy ixtisoslashgan terminologiya;
- d) soha (ixtisoslashgan) terminologiya;
- e) xususiy sohalar terminologiyasi⁴².


V.V.Dubichinskiy V.V.Morkovkinning bu tasnifidan kelib chiqib, terminologik lug‘aviy qatlamning yuqoridagilardan faqat uchtagiga tegishli ekanligini ko‘rsatadi va shu asosda so‘zlik mazmuni va sifati jihatidan farq qiluvchi terminologik lug‘atlarning uch turini ajratadi (Qarang: 1-rasm):⁴³.

⁴⁰ Дубичинский В.В. Лексикография русского языка: учеб. пособие / Дубичинский В.В. – М.: Наука: Флинта, 2008. – 432 с. – С. 147.

⁴¹ Ожегов С.И. Лексикология. Лексикография. Культура речи. – М., 1974. – С. 244.

⁴² Морковкин В.В. О лексикографическом обеспечении профессионально ориентированного обучения русскому языку нерусских студентов // Теория и практика научно-технической лексикографии. – М., 1988. – С. 180-185.

⁴³ Дубичинский В.В. Лексикография русского языка: учеб. пособие / Дубичинский В.В. – М.: Наука: Флинта, 2008. – 432 с. – С. 148.



1-rasm. Terminologik lugʻatga tegishli leksik qatlam

Demak, har bir terminologik lugʻatni loyihalashtirishdan oldin “mazkur lugʻatning soʻzligi umumiy ixtisoslashgan terminologiya boʻladimi, maxsus sohaga ixtisoslashgan terminologiya boʻladimi yoki oʻta xususiy (fan tarmogʻi) xususiy soha terminologiyasi boʻladimi?” degan savolga javob topish kerak boʻladi. Natijada, lugʻat soʻzligini tanlashning dastlabki mezoni shakllanadi.

Bugungi kunga qadar olimlar terminologik lugʻatdagi bosh soʻzlar (soʻzlik tarkibi)ning *qaysi turkumga mansub boʻlishi* kerakligi haqida bir toʻxtamga kelishmagan. Ayrim olimlar terminologik lugʻatdagi soʻzlik faqat ot turkumiga mansub soʻzlardan iborat boʻlishi kerakligini taʼkidlashadi. Masalan, O.S.Axmanovanning fikricha, Evropa tillarida ismlar turkumi shu darajada mukammalki, hatto sifat va feʼllarning ot sifatida qoʻllanishi mumkinligidan terminologik lugʻat soʻzligi (yoki lugʻat maqolasidagi bosh soʻz) ot turkumiga mansub boʻladi⁴⁴. Bizningcha, bu roman-german tillaridagi soʻzlarning polifunksionalligi bilan bogʻliq. Chunki bu tillarda ayni bir soʻz (va hatto uning soʻz shakl) bir necha turkumga mansub boʻladi. Buni izohli lugʻatlarda koʻp kuzatamiz. Bu holat terminologik lugʻatlarni ham chetlab oʻtmaydi. Ammo oʻzbek tili uchun bu xususiyat mos kelmasligi mumkin: oʻzbek tilida ot, sifat va boshqa turkumga mansub terminlar kuzatiladi. Masalan:

1. Ot-termin:

SOʻZ SHAKL. Soʻzning nutqda qatnashadigan muayyan koʻrinishi. Mas., *togʻ havosi*, *togʻda yurmoq*, *togʻga bormoq* birikmalaridagi *togʻ*, *togʻda*, *togʻga* soʻzlari *togʻ* soʻzining uch soʻz shaklidir⁴⁵.

2. Feʼl-termin:

1) **SOʻZ Q OʻSHISH.** Ikki soʻzni q oʻshib, yangi soʻz hosil qilish usuli. Q.Kompozitsiya.
2) **S OʻNG JOYLASHUV.** Oʻzaro bogʻlangan (aloqadagi) unsurlardan birining keyinida joylashuvi: *Keldi u* (eganing keyin joylashuvi). Qiyos. Old joylashuvi⁴⁶.

Bobning 3.2-paragrafida *turli tilshunoslik maktab va yoʻnalishlari qarashlarini ensiklopedik lugʻatda ifodalash muammosi* tahlil qilinadi.

⁴⁴ Axmanova O.S. Словарь лингвистических терминов. – М., 1966. – С. 11.

⁴⁵ Хожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: “Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси” давлат илмий нашриёти, 1997. – 164 б. – Б. 98.

⁴⁶ Хожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: “Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси” давлат илмий нашриёти, 1997. – 164 б. – Б. 100.

Tilshunoslik terminlari lug‘atida tilshunoslik va uning yo‘nalishlari haqidagi lug‘at maqolasida quyidagicha ta‘riflanadi: “TILSHUNOSLIK til haqidagi, uning ijtimoiy tabiati, vazifasi, ichki tuzilishi, tasnifi haqidagi; muayyan tillarning ish ko‘rish (faoliyat) qonunlari va tarixiy taraqqiyoti haqidagi fan. Maqsadi, vazifasi va sh. k.ga ko‘ra tilshunoslikning bir necha yo‘nalishlari (sohalari) bor; umumiy tilshunoslik (q.); amaliy tilshunoslik (q.); xususiy tilshunoslik (q.); struktural lingvistika (q.); matematik lingvistika (q.) va b.”⁴⁷ Tilshunoslik yo‘nalishlari terminlarini umumlashtiruvchi umumiy terminografiya yoki yuqorida ko‘rsatilgan yo‘nalishlarning maxsus terminografiyasi ularning terminologik lug‘atlari bo‘ladi. O‘zbek tilshunosligida ushbu yo‘nalishlarning terminologiyasini birlashtirgan terminologik lug‘at sifatida o‘zbek tilida tilshunoslik terminlari lug‘ati⁴⁸ mavjud bo‘lib, mazkur lug‘at tilshunoslikning barcha yo‘nalish va sohalari terminologiyasini qamrab olmagan. O‘zbek tilshunosligi yo‘nalishlari terminologiyasini aks etgan kichik lug‘atlar⁴⁹ ham nashr etilgan.

Bir termin turli tilshunoslik maktabi vakillari tomonidan o‘rganilgan bo‘lsa, lingvistik lug‘at maqolasida buni aks ettirishda turli usul va pometalardan foydalanish holati kuzatiladi. Masalan, “информативность сообщения” termini tavsifiga diqqat qaratamiz:

ИНФОРМАТИВНОСТЬ СООБЩЕНИЯ. Системный признак (категория) текста, связанный со свойством текста фиксировать знания о мире, отражающие авторское мировосприятие, выраженное в конкретной речевой форме. Выделяются следующие виды информации: логическая и эстетическая (А.Моль); содержательно-фактуальная, содержательно-концептуальная, содержательно-подтекстовая (И.Р.Гальперин); предтекстовая, надлинейная (притекстовая), подтекстовая (А.Ф.Папина); главная, уточняющая, дополнительная, повторная, нулевая (К.М.Накорякова)⁵⁰.

Ushbu atama “matnning olam haqida ma‘lumot beruvchi tizimli ifodasi ekanligi, uning muallif qarashlarini aks ettirishi, konkret nutqiy shaklga ega bo‘lishi ta‘kidlangan. Axborot turlari ko‘rsatilarkan, turli olimlarning tasnifi keltiriladi: mantiqiy va estetik (A.Mol), mazmuniy-faktik, mazmuniy-kontseptual, mazmuniy-ichki matn (I.R.Galperin); asosiy, aniqlovchi (bahona), matnosti (A.F.Papina); asosiy, aniqlovchi, qo‘shimcha, takroriy (K.M. Nakoryakova) kabi tasniflar keltiriladi. Shu tasniflardan biri keltirilganda termin izohlayotgan hodisa to‘liq ta‘riflanmay qolardi. Bir necha tilshunosning fikri, tasnifining keltirilishi ilmiy rang-baranglikni ta‘minlaydi va hodisa mohiyati to‘la ochiladi.

Ayrim o‘rinlarda bitta lug‘at maqolasida arab raqami bilan tartiblangan bir necha ma‘no kuzatiladi. Masalan:

АКТУАЛИЗАЦИЯ [лат.: actualis – деятельный, действенный]. **1.** Реализация в речи потенциальных возможностей, языковых единиц, их приспособление к речевой ситуации. **2.** В теории референции: выделение какого-л. предмета из класса однородных.

⁴⁷ Хожиев А. Тилшunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: “Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси” давлат илмий нашриёти, 1997. – 164 б. – Б. 107.

⁴⁸ Хожиев А. Тилшunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: “Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси” давлат илмий нашриёти, 1997. – 164 б.

⁴⁹ Хамроева Ш. Корпус лингвистикаси атамалари қисқача изохли луғати. – Toshkent: Камалак, 2018. – 96 б.

⁵⁰ Жеребило Т.В. Словарь лингвистических терминов. Изд. 5-е, испр. и доп. – Назрань: ООО “Пилигрим”, 2010. – 486 с. – С. 126.

Bir lug‘at maqolasida arab raqami bilan ajratilgan izohlar esa terminning ko‘p ma‘noli ekanligini bildirib, har bir arab raqami ostida uning yangi ma‘nosi beriladi.

Quyidagi holat tushunarsiz: aynan bir termin ikki lug‘at maqolasida keltirilgan, birortasida tilshunoslikning biror sohasiga oidligi haqida pometa mavjud emas. Odatda, bunday bir necha ma‘nosi mavjud terminlar bir lug‘at maqolasida tavsiflanadi.

КАЛЬКИ СЕМАНТИЧЕСКИЕ¹. Заимствование одного из значений слова, в результате чего появляется его новый лексико-семантический вариант (развитие полисемии): картина – «кинокартина» (ср.: англ. picture).

КАЛЬКИ СЕМАНТИЧЕСКИЕ². Такие слова, когда калькируется не только состав слова, но и переносные значения: фр. clou обозначает не только гвоздь, но и «главную приманку театрального представления, программы». Соответственно в русском языке начали употребляться выражения: гвоздь сезона, гвоздь программы⁵¹.

Umumiy tilshunoslik va tilshunoslikning boshqa sohasiga tegishlilikni bildirish uchun bir lug‘at maqolasida terminning ikki ma‘nosi tartib raqamisiz aks ettirilgan: “kategoriya” terminining dastlabki ma‘nosi sifatida uning falsafiy mohiyati ochilgan, ikkinchi ma‘nosi o‘laroq uning grammatikadagi o‘rni izohlangan. Keyingi qismda tilshunoslikning alohida sohasi – kognitiv tilshunoslikdagi bahosi berilgan: *inson tafakkurining bir shakli* ekanligi izohlangan.

КАТЕГОРИЯ [др.-греч. κατηγορία обвинение]: 1) наиболее общее понятие философии, выражающее существенные, всеобщие свойства и отношения явлений действительности и познания; отношения одной из основных форм бытия или одного из его основных отношений: время, движение, единство, закономерность, материя, необходимость, причинность, пространство, случайность, сущность и т.д.; 2) разряд, группа, ранг предметов, понятий, лиц или явлений, объединенных общностью к.-л. признаков в грамматике: К. числа. **В когнитивной лингвистике.** Одна из познавательных форм мышления человека, при помощи которой обобщается опыт и осуществляется его классификация⁵².

O‘zbek tilshunosligida formal tilshunoslik maktabi (bu maktabning shakllanishida A.Fitrat, G‘ozi Olim Yunusov, U.Tursunov, E.Polivanov, Q.Ramazon, F.Kamolov va A.G‘ulomovlarning xizmatlari katta⁵³), substansial tilshunoslik maktabi (Bu borada H.Ne‘matov, N.Mahmudov, A.Nurmonov, G‘.Zikrillayev, R.Sayfullayeva, O.Bozorov, B.Mengliyev, Sh.Shahobiddinova kabi olimlarning hissasi katta) kabi tilshunoslik maktablari shakllandi⁵⁴. Bu maktablarda tilshunoslikdagi ayrim hodisalar haqidagi qarashlar tubdan farq qiladi. Buning asosiy sababi formal tilshunoslik maktabi grammatikasining rus grammatikasi qoliplari asosida shakllantirilganligi bilan izohlanadi. Shunday tushuncha/hodisa/terminlarni lingvistik lug‘atda kodirovka qilishda turli maktab qarashlarini aks ettirish muammosi paydo bo‘ladi, ya‘ni bu o‘rinlarda qarashlar

⁵¹ Жеребило Т.В. Словарь лингвистических терминов. Изд. 5-е, испр. и доп. – Назрань: ООО “Пилигрим”, 2010. – 486 с. – С. 140.

⁵² Жеребило Т.В. Словарь лингвистических терминов. Изд. 5-е, испр. и доп. – Назрань: ООО “Пилигрим”, 2010. – 486 с. – С. 142.

⁵³ Сайфуллаева Р.Р. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Ўқув қўлланма. – Т.,Фан ва технологиялар, 2009. – 416 б. – Б. 20.

⁵⁴ Сайфуллаева Р.Р. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Ўқув қўлланма. – Т.,Фан ва технологиялар, 2009. – 416 б. – Б. 23.

batamom farqli. Buni misollarda tahlil qilamiz. Bu ikki maktab “kesim” tushunchasiga nisbatan qarashlarini quyidagi jadvalda aks ettiramiz va farqli o‘rinlarni ajratib ko‘rsatishga harakat qilamiz:

Substansial tilshunoslik qarashi	Formal tilshunoslik qarishi
<p>Kesim – tasdiq/inkor, zamon, modallik, shaxs/son (kesimlik kategoriyasi) ma’no va shakllariga ega bo‘lgan so‘z, gap markazini tashkil qiluvchi bo‘lak. Nutqimizda kesimsiz gap bo‘lishi mumkin emas. Gapda kesim bo‘lmasa, u o‘zbek tili (nutqi uchun to‘liqsiz gap. Kesim gapning shunday konstruktiv bo‘lagiki, u o‘zini shakllantiruvchi grammatik kategoriya – kesimlik kategoriyasi voqelanishiga ega. Shu sababdan hamma vaqt gapda kesim tarkibi murakkab⁵⁵.</p>	<p>Kesim egadan keyingi ikkinchi bosh bo‘lak bo‘lib, gap orqali aloqa-aralashuvda, fikr almashuvda katta ahamiyatga egadir. Kesim egadan anglashilgan shaxs, narsa-predmet va voqea-hodisaning belgisini bildiradi. Bu jihatdan u aniqlovchiga o‘xshab ketadi. Biroq belgini qanday ifoda etishiga ko‘ra, aniqlovchi bilan kesim o‘zaro farq qiladi. Aniqlovchida belgi predmet tasavvuri bilan qo‘shilib, yaxlit bir butun tushuncha holida, atributiv aloqa y o‘li bilan ifodalansa, kesimda u shu belgining egadan anglashilgan predmetda mavjud yoki mavjud emasligi nuqtai nazaridan tasdiqlash tarzida – hukm shaklida, predikativ aloqa yo‘li bilan ifodalanadi⁵⁶. Kesim ega haqidagi hukmni bildiradigan bo‘lakdir. Hukm tasdiq hukm va inkor hukmga bo‘linganidek, ega haqidagi hukmni bildiradigan bo‘lak – kesim ham tasdiq kesim va inkor kesimga ajraladi.</p>

Ta’riflarda ko‘rinib turganidek, formal yo‘nalishda kesim “egadan keyingi ikkinchi bosh bo‘lak” sifatida qaraladi, egadan anglashilgan shaxs, narsa-predmet va voqea-hodisaning belgisini bildiradi, ya’ni ularning qarashiga ko‘ra, bosh bo‘laklar tizimida kesim egadan keyingi o‘rinda turadi. Substansial tilshunoslikda kesim “gap markazini tashkil qiluvchi bo‘lak”. Savol tug‘iladi: “lingvistik atamalar lug‘atida bu ta’riflarning qaysi biriga tayanamiz?” Lingvistik terminologik lug‘atdagi semantizatsiyada darslik va qo‘llanmalarga tayaniladi, qator darsliklardagi ta’riflar yig‘iladi va umumlashtiriladi. Mazkur terminning lingvistik lug‘atdagi ta’rifiga nazar tashlaymiz:

KESIM. Gapda predikatsiya ifodalab keluvchi bosh bo‘lak. Ikki tarkibli gaplarda ega bilan ifodalangan shaxs, predmet, hodisaning belgisini tasdiq yoki inkor yo‘li bilan anglatuvchi bosh bo‘lak⁵⁷.

Ko‘rinadiki, mazkur ta’rifda kesim juda qisqa ta’riflangan, ikki xil qarashdan birortasining yondashuvi aniq ko‘rsatilmagan, fikr neytrallashtirilgan. Bizningcha, o‘zbek tili milliy xususiyatlaridan kelib chiqib, yondashuv farqli bo‘lgan holatda yangi tadqiqotlar va fikrlarga tayanish maqsadga muvofiq.

Bobning 3.3-paragrafida *ko‘p ma’noli lingvistik atamalarni tavsiflash masalasi* tahlil qilingan.

Mutaxassislar terminlar ko‘p ma’noliligini quyidagi misollar bilan asoslashadi:

Ratable – (1) soliqqa tortiladigan, (2) baholangan, (3) mutanosib, nisbiy;

⁵⁵ Сайфуллаева Р.Р. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Ўқув қўлланма. – Т.,Фан ва технологиялар, 2009. – 416 б. – Б. 345.

⁵⁶ Ўзбек тили грамматикаси. II том. Синтаксис. – Тошкент: Ўзбекистон ССР “Фан” нашриёти, 1976. – 560 б. – Б. 125.

⁵⁷ Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: “Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси” давлат илмий нашриёти, 1997. – 164 б. – Б. 48.

equity – (1) kompaniyaning ustav fondi, kapitali, ustav kapitali, (2) aktivlarga bo‘lgan huquq, mulk huquqi, (3) oddiy aksiya, (4) ri passivlari;

stock – (1) ustav kapitali, (2) fondlar, (3) aylanma mablag‘lar fondlari, (4) pul fondi, (5) aktivlar.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bir ma‘noli terminlar ko‘pincha unikal terminlar, ko‘p ma‘nolilari universal terminlardir. Ba‘zan unikal terminlar orasida ham polisemiya uchraydi: *xolding* – (1) *ijaraga olingan mulk*, (2) *depozitlar, xoldinglar*, (3) *aksiyalar paketi*, (4) *xolding kompaniyasi nazoratidagi korxonalar*, (5) *egalik*⁵⁸.

A.Reformatskiy “yaxshi terminlar” polisemiya, ekspressivlikdan chegaralangan bo‘lishi, polisemantiklik xususiyati tabiiy bo‘lgan umumiste‘moldagi, noterminologik qatlam so‘zidan farq qilishi kerakligini uqtiradi.

Terminlarni metonimik munosabat bilan bog‘lab turuvchi ma‘nolarning asosiy ko‘rinishlarini E.A.Kruglova quyidagicha ajratadi:

1. Umumiy/xususiylar: *conversion* – (1) konvertatsiya / (pul birliklarini ko‘chirish); (2) konvertatsiya / valyuta almashish; *struture* – (1) struktura; (2) tashkiliy tuzilma. Umumiy ma‘nodan kelib chiqadigan, ammo bir-biri bilan bevosita bog‘liq bo‘lmagan turli xil maxsus ma‘nolar shakllanishi ham mumkin: *unit* – (1) til birligi, (2) ishlab chiqarish birligi; (3) ichki bo‘lim, ya‘ni tashkiliy tuzilma (“birlik” so‘zi bilan umumiylik kasb etadi). Ba‘zi hollarda ikkinchi ma‘noning hosil bo‘lishini hosila (q o‘shma so‘z shaklidagi) terminning ellipsisi bilan bog‘lashadi. Masalan: *group* – (1) guruh (so‘z, ma‘no), (2) kompaniya guruhi (Group of companies).

2. Butun-bo‘lak: *operation* (1) xo‘jalik faoliyati; xo‘jalik faoliyatining bir ko‘rinishi; (2) amaliyot (jarrohlik amaliyoti, tarjimonlik amaliyoti, qutqaruv amaliyoti).

3. Harakat, harakat natijasi/oqibati: *performance* – (1) amalga oshirish, ijro etish; (2) natija; ish ko‘rsatkichi.

4. Harakat, jarayon – harakat bajaruvchisi.

Rus tilidagi lingvistik terminlar lug‘atlarida “основа” – *ASOS* termini ikki xil beriladi.

ОСНОВА СЛОВА (основа словоизменения; основа формообразования; словоизменятельная основа). Общая часть форм слова или всей парадигмы словоизменения. Например: зайчонок, зайчонка, зайчонку и т. д.

ОСНОВА СЛОВА В МОРФЕМИКЕ. Общая часть всех словоформ одного и того же слова, которая остается после отсечения окончания, постфикса -те и формообразующих суффиксов.

ОСНОВА СЛОВООБРАЗОВАНИЯ (производящая основа; образующая основа; словообразующая основа; мотивирующая основа). Общая часть двух или нескольких слов, которая использована для производства и мотивировки структуры и значения нового слова. Это часть словообразовательной формы. Она порождает производные слова – важнейшие единицы языка: медведь – медвеж- + онок = медвежонок – детеныш медведя. Медвеж- – это производящая основа.

ОСНОВА СЛОВОФОРМЫ. Часть слова без окончания и словоизменятельного постфикса те. О.с. является конкретной линейной (синтагматической) единицей⁵⁹.

⁵⁸ https://bstudy.net/617150/literatura/odnoznachnye_mnogoznachnye_terminy_ekonomicheskie_terminy (murojaat sanasi 01.07.2023)

⁵⁹ Жеребило Т.В. Словарь лингвистических терминов. Изд. 5-е, испр. и доп. – Назрань: ООО “Пилигрим”, 2010. – 486 с. – С. 239.

Keltirilgan izohdan ko‘rinadiki, *ASOS* termini bilan bog‘liq 4 ta alohida, kichik lug‘at maqolasi keltirilgan va bosh so‘zlar sifatida “основа слова”, “основа слова в морфемике”, “основа словообразования”, “основа словоформы ” terminlari ajratilgan. Bu yerda *ASOS* termini bir hodisani atab kelyapti, faqat so‘z yasash asosi va so‘z o‘zgarish asosida ayrim qoidalar farqli.

O‘zbek tilidagi terminologik lug‘atda quyidagicha beriladi:

ASOS – q. So‘z yasash asosi⁶⁰.

Birinchi lug‘at maqolasida izoh mavjud emas, faqat boshqa lug‘at maqolasiga “q. So‘z yasash asosi” tarzida havola berilgan.

SO‘Z YASALISH ASOSI. Yangi so‘zning yasashida asos bo‘ladigan, so‘z yasovchi q o‘shiladigan qism. Mas., *tilak* so‘zida *tila*, *tilakdosh* so‘zida *tilak* kabilar so‘z yasash asosi hisoblanadi. Q. So‘zning so‘z yasash tuzilishi⁶¹.

Keyingi lug‘at maqolasida so‘z yasash asosi ta‘riflangan. O‘zbek tilshunosligidagi “asos” termini tavsifi qolib ketgan. Rus tilidagi lug‘atda bu hodisalar birikma shaklida termin sifatida shakllantirilib, alohida lug‘at maqolasida izohlangan.

Demak, mazkur termini ko‘p ma‘noli termin deb baholash mumkin. Lekin birorta lug‘atda (hatto bir lug‘at maqolasi o‘laroq berilgan lug‘atda ham) mazkur atamaning ko‘p ma‘noli ekanligi haqida pometa mavjud emas. Bizningcha, shunday holatlarda bu terminlarni alohida lug‘at maqolasida emas, balki bir lug‘at maqolasida ko‘p ma‘noli termini sifatida keltirish to‘g‘ri bo‘ladi.

Tadqiqotning **IV bobi “Lingvistik atamalarini ensiklopedik lug‘atlarda kodirovka qilish imkoniyatlari”** deb nomlangan. Bobda lingvistik atamaları so‘zligi, lingvistik atamalarni tavsiflash hamda umumiy lingvistik atamalarni lingvistik atamalar ensiklopedik lug‘atida ifodalash masalasi tahlil qilinadi.

Bobning 4.1-paragrafida *lingvistik atamaları so‘zligi va ularni tavsiflash masalasi* tahlil qilinadi.

Ensiklopedik lug‘at lingvistika sohasiga doir bo‘lgani uchun quyidagi manbalardan so‘zlik uchun birliklarni o‘rganish maqsadga muvofiq:

1. Tilshunoslik terminlari lug‘ati⁶²
2. Lingvistik terminlar lug‘ati (rus tilida)⁶³
3. Katta lingvistik ensiklopediya (rus tilida)⁶⁴
4. Lingvistik terminlar lug‘ati (rus tilida)⁶⁵
5. Kompyuter lingvistikasi terminlari tarjima lug‘ati⁶⁶

⁶⁰ Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: “Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси” давлат илмий нашриёти, 1997. – 164 б. – Б. 18.

⁶¹ Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: “Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси” давлат илмий нашриёти, 1997. – 164 б. – Б. 98.

⁶² Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: “Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси” давлат илмий нашриёти, 1997. – 164 б.

⁶³ Жеребило Т.В. Словарь лингвистических терминов. Изд. 5-е, испр. и доп. – Назрань: ООО “Пилигрим”, 2010. – 486 с.

⁶⁴ Большой энциклопедический словарь. Языкознания. Издание 2-е. – Москва, Издательство Большая рос. энцикл., 1998. – 685 с.

⁶⁵ Лингвистический энциклопедический словарь // <http://tapemark.narod.ru/les/thematic.html>(murojaat sanasi 02.02.2024)

6. Tilshunoslik terminlari izohli lug‘ati⁶⁷.

Tabiiyki, mazkur ensiklopediya va lug‘atlarda ko‘rsatilgan barcha terminlar emas, balki ulardan tanlangan lug‘at maqsadiga mos keluvchi terminlar tanlab olinadi. Keyinchalik bu terminlarni tavsiflashda ham ushbu manbalardan foydalanish mumkin.

Masalan, (rus tilidagi) lingvistik ensiklopediyada lug‘at terminlarining mavzuiy ko‘rsatkichida “tilshunoslik” mavzuiy guruhi quyidagilardan iborat: Maktablar, yo‘nalish va an’analar, tashkilotlar. Alohida til oilasi va tillar tadqiqiga oid terminlar. Tilshunoslik bilan bog‘liq jarayonlar yoki tilshunoslik leksikografiyasi. Ekstralingvistik terminlar. Til siyosati va menejmenti. Tilshunoslik sohalari terminlari. Jahon tillari.

Morfologiya bo‘limiga oid terminlarni quyidagi manbalardan saralaymiz (1-jadval).

1-jadval

“Morfologiya” mavzuiy to‘dasi terminlari

Lingvistik terminlar ensiklopediyasidan olinadigan terminlar	Lingvistik terminlar lug‘atidan olinadigan terminlar	O‘zbek tilida nashr etilgan terminologik lug‘at(lar)dan tavsiya etiladigan terminlar	O‘zbek tilidagi darslik, qo‘llanmalaridan tavsiya etiladigan terminlar
modallik morf morfema morfemika morfologiya morfonema morfonologiya tuslanish ravish asos kelishik paradigma paradigmatika o‘timli/ o‘timsizlik kategoriyasi possessiv predlog prefiks sifat egalik qarashlilik ravishdosh turlanish	so‘z turkumi yuklama son morfem struktura so‘zning morfem tarkibi morfemogramma morfokod morfologik ma‘no morfologik jarayonlar umumiy morfologiya boshlang‘ich shakl birikmali nominativ ega nominativ ega nominativ qator sintaksisda nomlanish shaxsi umumlashgan gap bog‘lovchi va bog‘lovchi vazifasidagi so‘zlarning farqi	obyektli fe‘l obyeksiz fe‘l ozaytirma daraja omomorfema oppozitsiya orttirma daraja orttirma nisbat ot ko‘makchi otlashish ochiq ifodali tuzilma payt ravishi pronominalizatsiya ravishdosh o‘ram ravish ergash gap relyativ munosabat hollashish sabab bog‘lovchisi sabab ergash gap sabab holi sanoq son	tus kategoriyasi tub asos takrorlanuvchi bog‘lovchi tanlama so‘roq gap divergent distributsiya

Shuningdek, “**til siyosati va menejmenti**” bilan bog‘liq terminlar ham so‘zlik sirasidan o‘rin olishga haqli. Masalan: AVTONOMIYA ma‘lum bir davlat hududida yashovchi etnik guruhning yuridik maqomi. Ta‘lim, madaniyat va maishiy hayotidagi muammolarini mustaqil yechadi. Avtonomiyaning quyidagi

⁶⁶ Kompyuter lingvistikasi atamalarining inglizcha, ruscha, o‘zbekcha lug‘ati. / Словарь терминов компьютерной лингвистики на английском, русском и узбекском языках. Ma‘sul muharrir: Sh.S. Ashurov – Toshkent. “Navro‘z” nashriyoti, 2020. – 58 bet.

⁶⁷ Mahkamov N., Ermatov I. Tilshunoslik terminlari izohli lug‘ati. – Toshkent: Fan, 2013. – 144 b.

ko‘rinishlari mavjud: 1) milliy-hududiy; 2) milliy-madaniy⁶⁸.

Leksikografiyaning xususiy yo‘nalishi bo‘lgan **mualliflik leksikografiyasi**ga oid atamalar ham lingvistik terminlar sirasida izohlanishi maqsadga muvofiq. Masalan: *mualliflik leksikografiyasi, muallif nutqi, muallif uslubi, muallif “men”i va h.*

“Tillar tasnifi” mavzuziga oid terminlar *языки агглютинирующие, языки аморфные, языки аналитические, языки банту, языки бесформенные* kabi terminlar tarjima qilinib, so‘zlik sirasiga kiritiladi.

Mavzuviy guruhlashtirish tematik ko‘rsatkichlarni ishlab chiqish uchun kerak bo‘ladi. So‘zlikni ishlab chiqish uchun dastlab fan sohalari mavzuiy guruh va mavzuiy to‘dalarga ajratiladi, mazkur bo‘limlarga oid terminlar yig‘ilgandan so‘ng so‘zlik alifbo tartibida tartiblanadi va lug‘at maqolalari alifbo tartibida joylashtiriladi.

Bobning 4.2-paragrafida *lingvistik atamalarni tavsiflash* masalasi tahlil qilinadi.

Atamalarni tavsiflash haqidagi qismda o‘zlashma terminlarni kodirovka qilishda lug‘at maqolasida etimologik ma‘lumot bo‘lishi talab etilishi xususida aytgandik. Mazkur termin ham o‘zlashma bo‘lganligi sababli uning qaysi tildan kirib kelganligini ko‘rsatuvchi ma‘lumot keltirilgan. Shuningdek, mazkur maqolada asosiy ma‘lumot bilan birga illyustrativ misollar, bibliografik ko‘rsatkich va, eng muhimi, ushbu termin bilan bog‘liq terminlar berilgan. Demak, mazkur lug‘at maqolasi quyidagi qismlardan iborat: bosh so‘z (1), etimologik axborot (2), ensiklopedik va lingvistik izoh (3), illyustrativ material (4), bibliografik ko‘rsatkich (5), termin bog‘liq bo‘lgan birliklar (6).

“Diffuz tovushlar” birikmali termini turli lug‘atlarda turlicha izohlanadi. Mazkur termin kimyo, biologiya, geologiya va tilshunoslikda qo‘llanadi. Demak, bu termin omonimik xususiyatga ega: kimyoda moddaning molekulyar og‘irligini o‘lchash, biologiyada oziq moddalarning so‘rilishi ma‘nosini bildirsa, geologiyada moddalarning quyuqdan suyuqqa o‘tishini bildiradi. Tilshunoslikda esa tovushlarning o‘zaro birikishi yoki qorishib ketishini anglatadi. Ko‘rinadiki, diffuziya termini turli fanlar doirasida turli ma‘nolarda qo‘llanadi. ko‘p ma‘noli terminlarni kodirovka qilishda qaysi fanga tegishli ekanligini bildiruvchi so‘z ajratib ko‘rsatiladi. Masalan, biz bu lug‘at maqolasida kursiv shrifti bilan ajratdik. Ayrim lug‘atlarda (masalan, izohli lug‘atda) satr boshida qisqartma yozuv bilan qo‘yiladigan pometa mazkur lug‘atning ko‘p ma‘noli ekanligini ko‘rsatadi:

DIFFUZIYA[lot. diffusio tarqalish, yoyilib ketish]/fiz. Biror modda (gaz, suyuqlik) zarralarining boshqa modda orasiga sekin asta o‘tib tarqalishi, kirib borishi. Gazlar diffuziyasi. Suyuqliklar diffuziyasi⁶⁹.

Ko‘rinadiki, izohli lug‘atdagi bu lug‘at maqolasida mazkur so‘z fizika faniga oid termin sifatida ko‘rsatilgan, xolos. Undan oldingi “Diffuz” so‘zi izohida esa birikma sifatida ko‘rsatilgan va alohida lug‘at maqolasida tilshunoslikka oid atama ekanligi ko‘rsatilgan. Tilshunoslik terminlari lug‘atida ham izohli lug‘atdagi tavsif takrorlangan. Qiyoslang:

⁶⁸ Жеребило Т.В. Словарь лингвистических терминов. Изд. 5-е, испр. и доп. – Назрань: ООО “Пилигрим”, 2010. – 486 с.

⁶⁹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-жилд. Т., 2006. – 608 б. – Б. 345

O‘TILdagi izoh	Terminologik lug‘atdagi izoh
DIFFUZ: diffuz tovushlar ⁷⁰ . Bir-biriga singishib ketgan, qorishiq tovushlar ⁷⁰ .	DIFFUZ TOVUSHLAR. Bir-biridan ajralmas, bir-biriga singib ketgan tovushlar ⁷¹ .

Kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatadiki, mazkur termin haqida manbalarda berilgan ma‘lumotlar yetarli emas. Biz yuqorida tavsiya etgan kodirovkada mazkur terminning boshqa fanlardagi ma‘nosi ham keltirilgan. Shuningdek, lingvistik termin sifatidagi ma‘nosi batafsil izohlangan. Uning ensiklopedik izohini quyidagicha tavsiya etamiz:

DIFFUZ TOVUSHLAR

Diffuz tovushlar – bir-biridan ajralmas va bir-biriga singishib ketgan, qorishiq tovushlar. Leksik diffuziya, tarixiy tilshunos, tilning leksikonlari orqali ovoqli o‘zgarishlarning tarqalishi. Traskning fikriga ko‘ra, leksik diffuziya fonetik jihatdan keskin, ammo leksional darajada bosqichma-bosqich. Leksik diffuziyaning mavjudligi uzoq vaqtdan beri munozarali edi, lekin faqat Vang [1969], Chen va Vang [1975] tomonidan bu munozaraga nuqta qo‘yildi. *Diffuziya* (lotincha: *diffusio* –singish, tarqalish) – atomlar va kolloid zarralarning tartibsiz issiqlik harakati natijasida bir moddaning ikkinchi moddaga o‘z-o‘zidan o‘tishi, birining ikkinchisiga singib ketishi. Diffuziyaning ahamiyati katta.

Kimyoda diffuziya usuli erigan moddaning molekulyar og‘irligini aniqlashda qo‘llaniladi.

Biologiyada oziq moddalarning so‘rilishi va yutilishi hamda moddalar almashinuv mahsulotlarining chiqib ketishida diffuziyaning ahamiyati bor.

Geologiyada diffuziya moddalarning quyudandan suyuqqa, issiqdan sovuqqa, namdan quruqqa tarqalishiga aytiladi. Foydali qazilma konlarini izlashda diffuziyaning roli juda muhim.

Tilshunosda esa diffuziya hodisasi bir- biriga singishib, qorishib ketgan tovushlarni ifodalaydi. Diffuz tovushlar haqida H.Jamolxonov, A.Hojiyev, Sh.Rahmatullayev singari tilshunos olimlar o‘z tadqiqotlarida so‘z yuritganlar.

Жамолхонов Ҳ.А. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Ўқув қўлланмаси. 1-қисм. –Т.: Низомий номли ТДПУ босмаҳонаси, 2004. Жамолхонов Ҳ.А. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Ўқув қўлланмаси. 2-қисм. –Т.:, 2004. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг янги алифбоси ва имлоси. – Т.: Университет, 1999 (қайта нашри – 2002). Турсунов У.М., Мухторов Ж., Раҳматуллаев С. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Қайта ишланган, тўлдирилган 3-нашри. –Т.: Ўзбекистон, 1992. Еникеев Р. Тил ҳақидаги қонунлар тарихига оид // Тил ва адабиёт таълими, 1997, № 2. Жамолхонов Ҳ.А. Алифбони ислоҳ қилиш керакми? // Туркий тиллар таракқиёти муаммолари, ТошДПИ илмий асарлари. – Т., 1993. Назаров К. Энг катта муаммо ечилади // Маърифат, 1992, 22-сон. Нурматов А. Илмий-техникавий тушунчаларни ифодалаш масаласи // Ўзбек тили ва адабиёти, 2000, 2-сон. Раҳматуллаев Ш, Ҳожиёв А. Ўзбек тилининг имло луғати. –Т.: Ўқитувчи, 1995. www.ziyonet.com

Bog‘lanuvchi so‘zlar: diffuziya, leksik diffuziya

Xulosa sifatida aytish mumkinki, ensiklopedik lug‘atlar uchun lingvistik terminlarni boshqa lug‘atlardan so‘zlik mazmuni, lug‘at maqolasi sifati, hajmi bilan farqlanadi.

Bobning 4.3-paragrafida *umumiy lingvistik atamalarni lingvistik atamalar ensiklopedik lug‘atida ifodalash* masalasi tahlil qilinadi.

⁷⁰ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-жилд. Т., 2006. – 608 б. – Б. 345.

⁷¹ Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: «Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси» давлат илмий нашриёти, 1997. – 164 б.– 37-б.

“Alohida til oilasi va tillar tadqiqiga oid terminlar” mavzuiy guruhiga oid soʻzlik va unga oid lugʻat maqolasini shakllantirish uchun oʻzbek tilida A. Hojiyev, N. Mahkamov lugʻatlari soʻzligini tahlil qildik. Bu lugʻatlarda ham mazkur mavzuiy guruhga oid terminlar koʻp emas. Ularning ayrimlarini tahlil qilamiz.

A. Hojiyev *flektiv tillar, fleksiya* hodisasini quyidagicha izohlaydi:

FLEKTIV TIL. Grammatik maʼnolar fleksiya yoʻli bilan ifodalanadigan til. Flektiv tillarga Hind-Evrova va som tillari oilalari kiradi. Qiyos. Agglyutinativ tillar⁷².

Shuningdek, *fleksiya* termini ham qisqa izohlangan.

FLEKSIYA (lot. Flexio – egish, burish; oʻzgarish). Bir necha grammatik maʼnoni bir yoʻla ifodalaydigan shakl yasovchi morfema (Rus tilshunosligida «окончание» deb yuritiladi). Oʻzakning morfonologik oʻzgarishi. *Ichki fleksiya* deb ham ataluvchi bu hodisada soʻz oʻzagidagi fonemalarning almashinishi grammatik shakllarning hosil boʻlishiga, hatto soʻz yasalishiga xizmat qiladi. Mas., arab tilidagi *maktab, maktub, kitob, kotib* soʻzlarni qiyoslang⁷³.

N. Mahkamov, I. Ermatovning “Tilshunoslik terminlari lugʻati”da mazkur terminlar ayni shakl va mazmunda berilgan⁷⁴.

V. Jerebilo esa mazkur terminlarni quyidagicha tavsiflaydi:

ФЛЕКСИЯ [< лат. flexio сгибание]. 1. То же, что словоизменение. 2) Аффикс, используемый для образования грамматических форм слова: дом, дом-а, дом-у и т.п. Флексия не входит в основу слова. Важнейшее свойство флексии – ее комплексный характер. Если в морфемной структуре слова существует позиция для флексии, то эта позиция будет замещаться поочередно различными флективными аффиксами: любил [-Ø. -а, -о, -и и т. п.]. Противопоставлены три вида флективных аффиксов: 1) окончания, т.е. флексии в узком смысле; 2) формообразующие суффиксы; 3) формообразующие постфиксы⁷⁵.

ФЛЕКТИВНЫЕ ЯЗЫКИ. Языки номинативного строя, для которых является существенным деление на языки аналитического и синтетического строя.

Mazkur terminning ensiklopedik tavsifi ingliz tilida quyidagicha keltiriladi:

